

ISSN 2181-922X

# O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

## AMALIY FILOLOGIYA MASALALARI

2022 Vol. 2 (5)

[www.aphil.tsuull.uz](http://www.aphil.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Saodat Muhamedova  
**Bosh muharrir o'rinbosari:** Botir Elov  
**Mas'ul kotib:** Xurshida Kadirova

### **Tahrir kengashi**

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Muyassar Saparniyazova, Manzura Abjalova, Nargiza Musulmonova, Yekaterina Shirinova, Shoira Isayeva, Oqila Turaqulova, Ikrom Islomov, Munira Shodmonova, Oqila Abdullayeva, Dilrabo Elova.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

“O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, noshirlik ishi kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** [aphil@tsuull.uz](mailto:aphil@tsuull.uz)

**Website:** <http://www.aphil.tsuull.uz>

## MUNDARIJA

### Amaliy filologiya

#### **Ikrom Islomov**

Geografik terminlarning ayrim semantik va grammatik xususiyatlari.....4

#### **Shoira Isayeva**

Methods of text analysis in literary reading lessons (example of the works of abdulla kakhhor).....11

### O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish

#### **Kadirova Xurshida**

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda o'qituvchi shaxsi va kreativ yondashuvi.....17

### Lingvokulturologiya

#### **Гульбахор Искандарова**

Роль языковой среды в формировании лингвокультурологических элементов в детской речи.....26

### Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)

#### **Botir Elov, Nizomaddin Xudayberganov, Zilola Xusainova**

Tabiiy tilni qayta ishlashda bag of words algoritmidan foydalanish.....35

#### **Botir Elov, Shahlo Hamroyeva, Oqila Abdullayeva, Mohiyaxon Uzoqova**

O'zbek tilida pos tegging masalasi: muammo va takliflar.....51

#### **Nizomaddin Xudayberganov, Shaxboz Hasanov**

Tabiiy tilni qayta ishlashda so'zlar orasidagi masofani aniqlash algoritmlaridan foydalanish.....69

### Korpus lingvistikasi

#### **Dilrabo Elova**

Fe'l grammatik shakllarining uslubiy xoslanishiga ko'ra lingvistik annotatsiyalash masalasi xususida.....84

#### **Botir Elov, Ma'rufjon Amirqulov**

O'zbek-ingliz tillarining teglangan parallel korpusini yaratish bosqichlari.....97

#### **Madina Samatboyeva**

Matnlarda NER obyektlarini aniqlashdagi muammolar.....110

## AMALIY FILOLOGIYA

**Geografik terminlarning ayrim semantik va grammatik xususiyatlari**Ikrom Islomov<sup>1</sup>**Abstrakt:**

Ushbu maqolada termin va unga asos bo'lgan umumleksik birlik orasidagi munosabat masalasiga doir ayrim fikr-mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, asos-hosila munosabatida bo'lgan termin va leksemaning semantik strukturasidagi umumiy sema, farqlovchi sema, asos sema, o'zbek geografik terminlari yasash sistemasi va morfemik tarkibi, morfologik tuzilishiga oid grammatik xususiyatlar ayrim misollar asosida tahlil qilingan. Termin va umumleksik birlikning o'zaro sistemaviy tadqiqi natijalari ularning leksikografik talqinlari mukammallashishiga xizmat qilishi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** *termin, terminosistema, geografik termin, leksema, relyef oti, semantik struktura, sema, asos sema, yasama termin, tub termin, yasovchi asos, yasovchi vosita.*

**Kirish**

Tilning leksik sistemasi tarkibida terminologik birliklar ham o'ziga xos mikrosistema sifatida alohida o'rin egallaydi. Terminlar leksik sistemaning taraqqiyotida muhim omil sanaladi. Tilning sohaviy qo'llanishida terminologik birliklarning semantik va grammatik xususiyatlari o'ziga xos. Terminologik birliklarning hosil bo'lishi, terminosistemaning shakllanishi va taraqqiyotida terminlar mansub tilning umumleksik birliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Tildagi umumleksik birlik va u asos bo'lgan terminning o'zaro munosabati semantik aspektda tekshirilsa, ulardagi semantik umumiylik va farqli belgilar yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek,

---

<sup>1</sup>*Islomov Ikrom Xushboqovich* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori.

**E-mail:** [islomovikrom@navoiy-uni.uz](mailto:islomovikrom@navoiy-uni.uz)

**ORCID:** 0000-0002-5011-1572

**Iqtibos uchun:** Islomov, I. 2022. "Geografik terminlarning ayrim semantik va grammatik xususiyatlari". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya*. 2 (5): 4-10.

umumiste'moldagi birlikning lisoniy qiymati va semantik strukturasi aniq belgilash, ularning leksikografik talqinini mukammallashtirish omili til birligini terminologik va umumleksik aspektda tadqiq qilish bilan bevosita bog'liq.

Borliq hodisalari ko'p qirrali mohiyatga ega bo'lganligi bois olamning lisoniy manzarasi va ilmiy terminologiya o'rtasidagi o'zaro munosabat dialektik qarama-qarshiliklar birligi qonuniyati asosida namoyon bo'ladi. Leksemalarga terminologik, onomastik, dialektal va badiiy qo'llanishlar xos bo'lib, bu qo'llanishlarning har birida mazkur atov birliklar o'ziga xos belgilari bilan farqlilik kasb etadi.

Termin bilan umumleksik birlik orasidagi munosabat masalasi tilshunoslikda turli daraja va aspektlarda o'rganilib kelinmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarda termin va leksemaning umumiy hamda farqli xususiyatlari yuzasidan turlicha munosabat va xulosalar bildiriladi. "Terminlarning qo'llanish, tarqalish ko'lami muayyan terminologik sistema bilan cheklangan bo'lib, ular insonning faoliyati doirasidagi aniq uslubda harakat qiladi, voqelanadi. Terminologik leksika o'z tarkibiga tor mutaxassislik doirasidan ommaviy muloqot doirasiga ko'chgan noprofessional nutqiy kontekstda keng qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarini qamrab oladi" [Dadaboyev, 2020, 6]. Bundan ma'lum bo'ladiki, terminlar va ularning xususiyatlarini tekshirish va baholashda, albatta, termin bilan unga asos bo'lgan umumleksik birlik orasidagi munosabatning sistemaviy o'rganilishi ham masalaning ilmiy yechimida alohida o'rin egallaydi.

### **Asosiy qism**

Terminologik birlik va unga asos bo'lgan umumleksik birlik orasidagi munosabatni o'zbek tilining ayrim relyef otlari va o'zbek geografik terminlari misolida kuzatishga harakat qilamiz. O'zbek tilida yer yuzasi ko'rinishlari, yer relyefi bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik strukturasi yer relyefining turli shakllari, ko'rinishlariga xos belgilar asosida shakllangan. Demak, yer relyefi bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarning semantik strukturasi "sathdan baland", "sathdan past", "sathga teng" kabi semalar mavjud. Ana shu semalar asosida bitta semantik guruhni tashkil qilgan leksemalar mikrosistemi o'zbek geografik terminlar sistemasining shakllanish manbai hamdir.

O'zbek tili leksikasida yer sathining baland, past, tekis ko'rinishlarini ifodalovchi leksemalar sistemasiga yuzdan ortiq birliklar mansub. Ular forma jihatidan turli-tuman bo'lsa-da,

semantik jihatdan uchta guruhni tashkil qiladi: *balandliklar, tekisliklar, pastliklar*. Yer yuzasining shakl va ko'rinishlari bilan bog'liq leksemalar sememasida, albatta, "Yer sathidan baland", "Yer sathidan past", "Yer sathiga teng" semalardan biri mavjud, ana shu sema asosida qayd qilingan mikrosistemalardan biriga mansub bo'ladi.

Yer sathining turli ko'rinish va shakllarini ifodalovchi leksemalar o'z-o'zidan relyef otlari maqomini ham egallaydi. Relyef otlari sifatida umumleksik tizimda barqarorlashgan mazkur atov birliklar keyingi bosqichlarda soha terminlari sistemasining shakllanishida ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu holatda ham yer relyefi tushunchasiga aloqador sema termin semantik strukturasi asosini tashkil qiladi. Leksemaning umumiste'mol ma'nosiga nisbatan terminologik ma'no aniq va ixtisoslashgan xususiyati bilan o'ziga xoslikka ega bo'ladi. Demak, umumiste'mol ma'noning ixtisoslashuvi natijasida terminologik ma'no shakllanadi, bu ma'no sohaviy, ilmiy tushunchalar ifodachisi sifatida alohida talqini va tavsifiga ega bo'ladi.

O'zbek geografik terminlarining yasalishiga xos xususiyatlar ham o'ziga xoslik kasb etadi. Geografik leksemalar sistemasi tarkiban turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ular dastlab tub yoki yasamaligi jihatidan tub geografik terminlar va yasama geografik terminlar guruhiga ajraladi.

Birinchi guruhga *vodiy, gaza, adir, tepa, qir, jar, dovon, tog', cho'qqi* kabilar mansub bo'lsa, *balandlik, beltog', ochgaza, past-tekislik, supatog', jarlik, yetimtog', yassi tepa* kabilar esa yasama geografik terminlar guruhini tashkil qiladi.

Tub geografik terminlar deb qayd qilinadigan *tog', tepa, adir, qir, dara, gaza, dovon* kabilar umumxalq tilida ham tub leksemalar mavqeyida bo'lgan. Ular ixtisoslashib, soha tushunchalarini ifodalovchi terminlar tizimiga o'tganda ham grammatik o'zgarishsiz tub geografik birliklar tarkibidan joy olgan, ya'ni o'zlarining tub leksema ekanligini soha birligi mavqeyiga o'tganda ham saqlab qolgan. Bunday aynanlikni ularning tub-yasamaliligi nuqtayi nazaridan aytish mumkin, xolos. Semantik strukturada esa, albatta, farq mavjud bo'ladi. Termin sifatida terminologik ma'no kasb etadi, umumleksik birlik esa umumiy, ijtimoiy ma'nosi bilan farqlanib turadi.

Yer sathi ko'rinishlari bilan bog'liq yasama geografik leksemalar, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usullari orqali yasalgan.

*Tekislik, jarlik, balandlik, tog'lik, do'nglik* kabilar qo'shimcha qo'shish usuli bilan yasalgan yasama terminlar bo'lsa; *beltog', yassi tepa, yassi jar, qoratog', yonbag'ir, ochgaza, do'ngqum, pasttekislik* kabilar kompozitsiya usuli orqali hosil qilingan yasama terminlar hisoblanadi. Darhaqiqat, "Yasama so'zning ma'nosi va boshqa xususiyatlari uning tarkibiy qismlari ma'nosi, shu qismlarga xos xususiyatlar asosida yuzaga keladi". [Hojiyev, 2010]

Yer sathi ko'rinishlarini ifodalovchi atov birliklari asos bo'lgan yasama geografik terminlarning vujudga kelishida [*ot+lik=asosdan anglashilgan qism ma'nosiga aniq ega joy, ko'rinish*] hamda [*sifat+lik=asosdan anglashilgan belgiga ega joy, ko'rinish*] derivatsion qoliplar muhim o'rin tutadi. Masalan, *jarlik, tog'lik, tepalik, sayhonlik, adirlik* kabilar [*ot+lik*] qolipi hosilalari bo'lsa, *pastlik, balandlik, tekislik, chuqurlik* kabi terminlar ikkinchi qolip asosida yuzaga kelgan. Ko'rinadiki, [*ot+lik*] ko'rinishidagi qolipning [*ot*] qismini yer sathi ko'rinishlarini ifodalovchi atov birliklar egallaydi. Ya'ni affiksatsiya usuli bilan hosil qilingan yasama geografik terminlarda yasovchi asos umumleksik birlikdan bo'lib, yasovchi qo'shimcha mavqeida, asosan, *-lik* ot yasovchi qo'shimchasi ishtirok etadi. *-lik* qo'shimchasidan yasama sodda geografik atamalar tuzishda o'rin-joy ko'rinishini ifodalash uchun keng foydalaniladi. Ma'lumki, *-lik* affiksi, asosan, ot, sifat va ravish turkumiga oid so'zlardan ot yasovchi ko'p ma'noli qo'shimchadir. [Nurmonov, Mahmudov 1987]

*-lik* affiksi yasovchi asosdan anglashilgan qismga egalik ma'nosidagi ot yasaydi: *balandlik, pastlik, jarlik, do'nglik, qiyalik, yalanglik* kabi. Bunday leksemalarning ayrimlari *-lik* affiksisiz qo'llanilishi ham mumkin. Masalan, *jarlik, tepalik, do'nglik* kabi leksemalariga xos ma'noda *jar, tepa, do'ng* leksemalarning ishlatilishi kuzatiladi. Lekin *-lik* affiksi qo'llanganda, ko'rsatilgan ma'no aniq ifodalanadi. Qiyoslang: *tepa* – makonning yuqori tomoni (yuqorisi); *tepalik* – er sathining yuqoriga ko'tarilgan qismi. [Hojiyev, 1989]. Yuqoridagi *-lik* affiksi orqali yasalgan yasama so'zda asosdan anglashilgan joy, ko'rinish aniqlik kasb etmoqda. Bu aniqlik yasama so'zning yasalish strukturasi tashkil etuvchilaridan biri bo'lgan *-lik* komponenti ma'nosi yordamida yuzaga chiqadi.

Yasama geografik terminlar tarkibida yasovchi asos, asosan, umumiste'moldagi leksemalar hisoblanadi, ba'zan *baland, tekis, past* kabi sifat turkumidagi birliklar ham ot mavqeyida kelib, polifunksionallik belgisi orqali yer sathi ko'rinishini ifodalovchi geografik terminlar hosil qilishda qatnashadi. Masalan, *balandlik, tekislik, pastlik* каби.

Geografik terminlarning tuzilish jihatidan qo'shma hisoblanadigan tipdagi terminlar tarkibida yer sathi ko'rinishlarini ifodalovchi umumiste'mol leksemaning miqdori ancha. Xususan, *olatog'*, *supatog'*, *yonbag'ir*, *yonartog'*, *yassi jar*, *do'ngqum* kabi. Bu kabi geografik terminlarning yasamaligini ularning morfologik tarkibini kuzatish orqali quyidagicha izohlash mumkin.

Qo'shma yasama geografik terminlar tarkibi, asosan, ikki o'zakli bo'lib, alohida ma'nolariga ega bo'lgan birliklar birikuvidan hosil qilingan. Ikki birlikning shunchaki birikishidan yuzaga kelgandek ko'rinadigan bu kabi qo'shma leksemalarning yasalishida o'ziga xos so'z yasalish strukturasi belgilash mumkin. *Olatog'*, *supatog'*, *yetimtog'*, *yonar tog'*, *yassi tog'*, *beltog'* kabi qo'shma geografik leksemalar kompozitsiya usuli bilan hosil qilingan yasama terminlar hisoblanadi. Aynan *tog'* leksemasi kompozitsiya usuli bilan yasalgan bunday tipdagi qo'shma leksemalarning bir nechasi tarkibida ishtirok etmoqda. Lekin, shunga ko'ra, mazkur leksemalarning so'z yasalish strukturasi yasovchi asos va yasovchi shakl komponentlariga ajratish mushkullik tug'diradi. Bu borada akademik A.Hojiyev tomonidan ham munosabat bildirilgan. Bunday qo'shma leksemalarning tarkibidagi *tog'* komponenti so'z yasalish asosi yoki yasovchi shakl vazifasida bo'la olmaydi. Masalan, *olatog'*, *supatog'*, *yetimtog'*, *yonartog'* qo'shma leksemalari *tog'*ning turli belgilari asosida hosil qilingan. Shu tufayli ham mazkur qo'shma leksemalar ma'nosini komponentlari ma'nosi bilangina asoslab bo'lmaydi. Bunday qo'shma leksemalarning ma'nosi yana boshqa leksemalar bilan birga asoslanadi: *olatog'* - ko'p yillik qor va muzliklari bo'lgan *tog'*; *yetimtog'* - *tog'* tizmasidan ajralgan holda alohida joylashgan yolg'iz *tog'*; *yonartog'* - so'nmagan vulkani bor *tog'*.

### **Xulosa**

Zamonaviy tendensiya va yondashuvlar termin va unga asos bo'lgan umumleksik birlik munosabatini yangicha aspekt va metodlarda o'rganishni taqozo qiladi. Termin va leksema o'zaro semantik jihatdan umumiy semalarga ega bo'lsa-da, ularning semantik strukturasi jiddiy farqli belgilar mavjud, ularning umumleksik va terminologik mazmunini baholash, leksik tizimdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish orqali leksik birlikning lisoniy qiymatini aniqlash imkoniyati qo'lga kiritiladi. O'zbek tilining umumiste'moldagi relyef otlari tizimi o'zbek tili geografik terminosistemasining birlamchi boyish manbayi hisoblanadi.



Terminlarning semantik strukturasi, yasalish tizimi, morfemik tarkibi terminga asos bo'luvchi umumleksik birlik asosida talqin qilinsa, ularning o'zaro umumiy va farqli xususiyatlari aniq xarakter kasb etadi, pirovard natijada terminologik va umumleksik birlikka oid leksikografik talqin hamda tavsifning mukammallashuvini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar:**

- Dadaboyev, H. 2020. *O'zbek terminologiyasi*. O'quv qo'llanma. Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent: 136 b.
- Hojiyev, A. 2010. *O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari*. Toshkent: Fan.
- Hojiyev, A. *O'zbek tili so'z yasalishi*. 1989. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari studentlari uchun qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi.
- Nurmonov, A., Mahmudov, N. 1987. "*O'zbek tili so'z yasalishiga bir nazar*". *O'zbek tili va adabiyoti* 5. 22 - 24.

## **Some semantic and grammatic characteristics of geographical terms**

Ikrom Islomov<sup>1</sup>

**Abstract:**

This article discusses some considerations regarding the relationship between a term and the general lexical unit on which it is based. The general seme in the semantic structure of the term and lexeme in relation to the derivative stem, the distinctive seme, the main seme, the system and morphemic structure of Uzbek geographical terms, and the grammatical features of the morphological structure are also analyzed. based on some examples. It was noted that the results of a systematic study of the term and the general lexical unit will serve to improve their lexicographic interpretations.

**Key words:** *term, terminological system, geographical term, lexeme, relief name, semantic structure, seme, basic seme, artificial term, primitive term, constructive basis, constructive tool.*

---

<sup>1</sup>*Islomov Ikrom Xushboqovich* – Doctor of Philological sciences, Associate Professor of the Department of Applied Philology Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** [islomovikrom@navoiy-uni.uz](mailto:islomovikrom@navoiy-uni.uz)

**ORCID:** 0000-0002-5011-1572

**For reference:** Islomov, I. 2022. "Some semantic and grammatic characteristics of geographical terms". *Uzbekistan: language and culture. Applied philology*. 2 (5): 4-10.

**References**

- Dadaboyev, H. 2020. *O'zbek terminologiyasi*. O'quv qo'llanma. Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent: 136 b.
- Hojiyev, A. 2010. *O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari*. Toshkent: Fan.
- Hojiyev, A. *O'zbek tili so'z yasalishi*. 1989. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari studentlari uchun qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi.
- Nurmonov, A., Mahmudov, N. 1987. "*O'zbek tili so'z yasalishiga bir nazar*". *O'zbek tili va adabiyoti* 5. 22 - 24.

## Methods of text analysis in literary reading lessons (example of the works of Abdulla Kakhhor)

Shoira Isayeva<sup>1</sup>

*“You have fire in your soul, spread your fire,  
burn wet and dry together”  
(Abdulla Kakhhor)*

### Abstract:

The works of literature are analyzed from a variety of perspectives in the methodology for teaching literature. It is imperative that such approaches are carried out in accordance with the purpose of the lesson. A number of methods are available for analyzing the development of events in the works, analyzing their content and form, studying the writer's ideas and thoughts through their expression in the work, and drawing a conclusion. This article analyzes the ideological and artistic aspects of Abdulla Kakhhor's stories. In addition, attempts have been made to portray the tragedy of the period in the writer's style and narratives. Abdulla Kakhhor is one of the writers who vividly reflected the tragedy of time, the suffering of people, social problems in all his works and left an indelible mark on our literature with his works of genius. In the classes, the ideological and artistic content of the writer's works was determined through plotting and analysis of images.

**Key words:** *poetics, tragedy, aspect, sociality, style of writer, horizon.*

### Introduction

Abdulla Kakhhor is a real writer, a talented storyteller who has a place in life and art, and who won the hearts of people with his unique talent and sharp pen. He is one of the most influential figures in Uzbek literature with his inexhaustible works, unique artistic style and ability to express many meanings in a few words. In his works, the author was able to reveal the truth of life, sometimes

---

<sup>1</sup>*Isayeva Shoira Boltaboyevna* – candidate of philological sciences, assistant professor of the department of Uzbek language education in foreign language groups, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** shoiraisayeva@navoi-uni.uz

**ORCID:** 0000-0003-1535-2108

**For reference:** Isayeva Sh. B.2022. “Methods of text analysis in literary reading lessons (example of the works of Abdulla Kakhhor)”. *Uzbekistan: language and culture. Applied philology.* 2 (5): 11-16.

with irony, sometimes with laughter, and it was not for nothing that he was recognized as the “King of Fairy Tales”. In recent years, a lot of creative work has been done to reveal the creative path of Abdulla Kakhhor and the essence of his works. In particular, Naim Karimov in his work “Landscapes of the 20th century literature” gave information about the life and work of A.Kakhhor, which we do not know. Literary critic Rahmon Kochkor prepared the author’s program “Astonishment”, dedicated to the life of the writer. Also, young artists such as Umarali Normatov, Ibrahim Hakkul, Markhabo Kochkarova studied the life and work of Abdulla Kakhhor. The reason for the interest in the unparalleled creativity and life of the author is his courage. What courage can you say?!

We all know that the author’s work was carried out under the pressure of an authoritarian regime that opposed any news. Abdulla Kakhhor was not afraid to reveal the plight of the oppressed people in his works at a time when the so-called Soviet poets of that time were singers of truth and truth, and at the same time persecuted writers. He sought to bring people out of spiritual poverty and depravity and warn them of the dark days of colonialism. As the author himself put it: “Better a poor horse than no horse.” This bitter truth is the truth of the past. The writer managed to convey this to his contemporaries and to us, generations, not simply, but through his satirical and humorous works. The condition of our people, the oppression to which our country is subjected, corruption and deception of the government, whose intentions boil down only to robbing the people, are clearly demonstrated in their masterpieces. In a word, Abdulla Kakhhor is a translator of the national language.

### **Main part**

We want to prove this by analyzing several of the author’s stories throughout the article. First of all, let’s talk about the story of “The Thief”. In the story, we become witnesses of the adversity of the time in which the writer lived and worked, the fact that the spiritually poor were a puppet in the hands of the colonialists. The robbery of the house of Cain, the protagonist of the story, depicts the actions of dishonest, corrupt officials. This is evidenced by the epigraph to the story “Death of a Horse, Dog Feast”. According to the plot, the cow of Cain’s grandfather was kidnapped. Here the author quotes a proverb: “Let the house of the farmer burn down, and the ox will not be lost. “Only this proverb can tell us about the financial situation of people of that time. Reading this story, we see that Cain’s

grandfather was robbed again, and Cain was the first to rob him by making fifty promises to his grandfather. When fifty did not work, Cain ran to his grandfather. Through Amir and his speech, our writer described the officials of that time who were interested only in their own interests and were indifferent to the plight of the people. Let's take a look at the next sentence in history:

He will return? Would someone volunteer to come up with a beautiful template? Why are you crying? Do not Cry! Cain looked at the ground and spoke.

Already in this proposal, we see that our ordinary people have always been a plaything in the hands of corrupt officials. Throughout history, Cain is also robbed by his grandfather's Tilmoh and Prestav. Obviously, the thief is not the one who stole the bull, but the real thief of the tyrannical government. This is how the then government deceived the people. It is no coincidence that at the end of the story, the bull's father-in-law gave him two oxen. Cain tells his grandfather that there is a "small" condition in return, and that it will become known in the fall. This one sentence is a sign that Cain is still being robbed. In the stories of Abdulla Kakhhor, the past is directly condemned. Speaking about the tragic days of the past, one cannot but dwell on the author's story "Horror". In this story, the author reflects the atmosphere of that time, the spiritual backwardness of people, the tragedy of the time, that is, horror. We see the unprecedented skill of Abdulla Kakhhor from the very beginning of the story. In the epigraph to the story, we see proof of this: "Women who do not know the day when women saw him in the past do not believe what they say." Indeed, in the past, women had no rights and were looked down upon. The fact that Unsin's father, the protagonist of the story, was married to the same man as the eighth wife was a nightmare in itself. The disgusting atmosphere of that time made the poor do it. Our people suffered a lot during the Soviet era, and it was financial difficulties that forced them to do what they did not want to do. We can see this in the story of how young Unsin was given to Olimbek Dodho, an old and humble man, in exchange for his father's debts. For a young girl, life in the dojo house was hell. Because in this story, if the dodho blames one wife, he hits them all the same. Tired of living in such an environment, the depressed never tired of going to the cemetery at night to return home and return for tea. Because for this young girl, the horror of the cemetery was nothing compared to the horror of the dodho house. In that moment, he was able to do anything to escape the terror of the dodho house and live a free,

free life. At the end of the story, Unsin performs this terrible task, but his heart cannot bear this horror. This is a worthy act, and this should be the end of it. But the spirit goes free. As for the analysis of A. Kakhhor's story "The Patient", the story reflects the invisible shortcomings of a sick woman in the whole society. Thus, through the events of the story, the author reveals that the original patient is society. It's as if the writer was thinking about our society through storytelling. The story skillfully describes the suffering of our people from poverty, the fact that they could not even find a loan to treat a sick woman, and the idea of a hospital with "money depicting a white padsha".

In an interview with *Mushtum* magazine, Abdulla Kakhhor said: He has destroyed the art, the most important educational tool". It makes every writer feel proud and proud. Because it's not for nothing, it's up to each writer to understand. Therefore, the writer cannot explain his feelings in any way. He tries to explain the sincere words of his heart to young readers and all his fans through his works. This requires great courage, contentment and patience from the writer. Abdulla Kakhhor was such a brave, contented and, of course, patient man.

In today's process of globalization and integration, there is no need to explain how important it is for each nation to know its past, the heritage of its ancestors, and the history of the formation of the nation. At the same time, the works of art that play an important role in shaping the worldview of today's man, in particular, the works that reflect the way of life, thoughts and aspirations of our people in a particular period, are especially invaluable. By reading and studying such works, we can better understand the spiritual values and changes in the spiritual worldview of our people. From this point of view, if we talk about the works of Abdulla Kakhhor, a writer who created his own great school of literature in the literature of the twentieth century, we will be able to put forward a very pure truth. Abdulla Kakhhor's stories, first and foremost, amaze with their sincerity and persuasive power. Everything in the author's image is a life event, an event that happened, a part of real life, an episode; most of the stories are based on real life, they are taken from the events that the writer saw and heard in his life, from the lives of acquaintances. But they are not exactly a copy of life. "If writing was about copying from life, there would be no easier job in the world," he said. Copying from life is like copying from a book. Copies will remain. You can't expect originality from such things. Originality

comes from experiencing the realities of life, feeling them, absorbing what you are thinking, and expressing your desires”.

Abdulla Kakhhor was also an effective translator. He skillfully translated the centuries of Pushkin, Tolstoy, Gogol and Chekhov into Uzbek. In particular, Chekhov translated his works with special interest and experience. Of course, the writer's services and hard work paid off. In 1966, he was awarded the Hamza State Prize, in 1967 the People's Writer of Uzbekistan, and in 2000 the Order of Merit. Abdulla Kakhhor is named after several streets, schools and collective farms in Tashkent and Kokand, as well as houses of culture and the Republican Satire Theater. In 1987, the Abdulla Kakhhor House-Museum was opened in Tashkent. His works have been translated into Russian, Kazakh, Ukrainian, Belarusian, Kyrgyz, Karakalpak and Tajik languages. Some of his stories have been published in English, German, French, Czech, Polish, Bulgarian, Romanian, Arabic, Hindi and Vietnamese.

### **Conclusion**

In conclusion, we can say that Abdulla Kakhhor is one of the writer who vividly reflected the tragedy of time, the suffering of people, social problems in all his works and left an indelible mark on our literature with his works of genius. In his works, writer openly described the situation of people. With his works, he strove to bring people oppressed by Soviet oppression out of the spiritual quagmire. We can see this from the stories analyzed above. In the following articles, we will focus on the work of Abdulla Kakhhor and many other writers.

### **References:**

- Karimov N. 1999. *Landscapes of 20th century literature*. Tashkent: Academic publication, p 580.
- Sharafiddinov O. 1988. *Abdulla Kahor*. Tashkent: p 326.
- Koshjanov M. 1984. *Abdulla Kahor skills*. Tashkent: Publishing House of Literature and Art named after Gafur Gulom, p 322.
- Abdulla Kahor. 1987–1989. *Works (5 volumes)*. Tashkent: Publishing House of Literature and Art named after Gafur Gulom, p 250.
- Mamiraliyev Q. *Some reviews on the mutation of genres in uzbek poetry*. International journal for innovative engineering and management research. ISSN 2456 – 5083. Vol 10 Issue03, Feb 2021. [www.ijiemr.org](http://www.ijiemr.org)

# Adabiy o'qish mashg'ulotlarida matnni tahlil qilish usullari (Abdulla Qahhor asarlari misolida)

Shoira Isayeva<sup>1</sup>

## Abstrakt:

Adabiyot o'qitish metodikasida asarlar turli nuqtayi nazardan tahlilga tortiladi. Bunday yondashuvlar darsning maqsadiga ko'ra amalga oshiriladi. Adabiy o'qish mashg'ulotlarida asarlardagi voqealar rivojini o'rganuvchi, asar mazmuni va shakliga ko'ra tahlil qiluvchi, asardagi ifoda vositalari orqali yozuvchining g'oyasini, fikrlarini o'rganuvchi va tahliliy xulosalar beruvchi bir necha turli usullar mavjud. Ushbu maqolada Abdulla Qahhor qissalarining g'oyaviy-badiiy jihatlari tahlil qilinadi. Yozuvchi uslubi va hikoyalarida davr fojiasini tasvirlashga harakat qilingan. Abdulla Qahhor o'zining barcha asarlarida zamon fojiasi, odamlar dardi, ijtimoiy muammolarni yorqin aks ettirgan, daho asarlari bilan adabiyotimizda o'chmas iz qoldirgan adiblardan biridir. Mashg'ulotlarda syujet qurilishi va obrazlar tahlili orqali yozuvchi asarlarining g'oyaviy-badiiy mazmunining aniqlanishi tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** *poetika, tragediya, aspekt, ijtimoiylik, yozuvchi uslubi, xarakter chegarasi.*

## Adabiyotlar:

- Karimov N. 1999. *XX asr adabiyoti manzaralari*. Toshkent: Akademnashr, 580 b.
- Sharafiddinov O. 1988. *Abdulla Qahhor*. Toshkent: 326 b.
- Qo'shjonov M. 1984. *Abdulla Qahhor mahorati*. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 322 b.
- Abdulla Qahhor. 1987–1989. *Asarlar* (5 tomlik). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 250 b.
- Mamiraliyev Q. *Some reviews on the mutation of genres in uzbek poetry*. International journal for innovative engineering and management research. ISSN 2456 – 5083. Vol 10 Issue03, Feb 2021. [www.ijiemr.org](http://www.ijiemr.org)

---

<sup>1</sup>*Isayeva Shoira Boltaboyevna* – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrasi dotsenti.

**E-pochta:** [shoiraisayeva@navoi-uni.uz](mailto:shoiraisayeva@navoi-uni.uz)

**ORCID:** 0000-0003-1535-2108

**Iqtibos uchun:** Isayeva Sh. B.2022. "Adabiy o'qish mashg'ulotlarida matnni tahlil qilish usullari (Abdulla Qahhor asarlari misolida)". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya*. 2 (5): 11-16.



**O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH****O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda o‘qituvchi shaxsi va kreativ yondashuvi**Xurshida Kadirova<sup>1</sup>**Abstrakt:**

Til ta’limida o‘qituvchining shaxs sifatidagi roli eng muhim omil sanaladi. Maqolada o‘qituvchi shaxsining so‘nib qolish sabablari va undan ozod bo‘lish usullari bayon qilingan. O‘qituvchining ruhiy holati dars samaradorligiga qanchalik ta’sir qilsa, uning obro‘si va professional ixlosini shunchalik tushurishi tahlilga tortilgan. Shuningdek, baxtli o‘qituvchilarning belgilari sanab o‘tilgan. Unga hayotiy misollar keltirilgan. O‘qituvchining aktyor bo‘lishi kerakligi haqidagi tushunchaga fikr bildirib, samimiyligni saqlash muhimligi ta’kidlangan.

**Kalit so‘zlar:** *O‘qituvchining toliqishi, aktyor, jamoaviy ish, baxtli o‘qituvchilar, ta’lim falsafasi.*

**Kirish**

Bugungi kunda o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganligini hisobga olgan holda uni boshqa millat vakiliga tilimizning go‘zal taraflarini ko‘rsatish, til ta’limni qulaylashtirish siyosat darajasiga ko‘tarilar ekan, buning ustida ishlashni davr taqozo qilmoqda. Bunda o‘qituvchining roli, til o‘rganuvchi yoki o‘zga tilli talabaning roli haqidagi muayyan nazariy va amaliy bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. So‘ngi 20 yil ichida juda katta muammo yuzaga kelmoqda. Yaxshi o‘qituvchilar, buyuk o‘qituvchilar o‘z kasbini tark etayotganligining guvohi bo‘lyapmiz. Gap shundaki, vijdonan mehnat qilgan o‘qituvchilarni bu kasb juda toliqtiradi. Ammo olingan bilimlardan foydalanish muhimligini va talabalarning tilni mashq qilishi zarurligini anglagan o‘qituvchilar bu jarayonga jalb qilinishi, rag‘batlantirilishi kerak.

<sup>1</sup>Kadirova Xurshida Batirovna – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’limi kafedrasida dotsenti.

**E-mail:** qodirova@navoiy-uni.uz

**ORCID:** 0000-0001-5194-7155

**Iqtibos uchun:** Kadirova, X. 2022. “O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda o‘qituvchi shaxsi va kreativ yondashuvi”. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya.* 2(5): 17-25.

O'qituvchi aktyor, murabbiy, psixolog, gid, yo'l boshlovchi va hokazo. Lekin o'qituvchi bu haqda o'ylashdan allaqachon charchagan! Kasbiy charchash degani, o'qituvchilarning yonayotgan sham kabi, bor nurini berishlari, hech narsa qolmaguncha bor kuchlarini berishlari demakdir. Oxirgi 3 yildan 5 yoki 10 yilgacha ishlagan va o'qituvchilikni tashlab ketgan ko'plab o'qituvchilarni ko'rishimiz mumkin. Ular avtomobil savdosi, qurilish... o'qituvchilikdan boshqa hamma narsa bilan shug'ullanishga rozi. Nima uchun bu sodir bo'lyapti?

Albatta, ta'limda har doim maoshdan norozilik, qadrsizlik va hokazo mavjud. Lekin asosiy sabablardan biri kasbning o'zi ekanligini taxmin qilish mumkin. Tilni o'rgatish shunchalik qiyin va, shu bilan birga shunchalik qiziqarliki, undan voz kechish ham mushkul.

### Asosiy qism

Talabalarga o'zbek tilida muloqot qilishda yordam berishga intilar ekan, o'qituvchi talaffuz bo'yicha, o'qish, yozish, grammatika, nutq va hokazolar bo'yicha mutaxassis bo'lishi kerakligini anglaydi. Uchuvchilar, hamshiralalar, boshlang'ich sinf o'quvchilari, o'rta maktab o'quvchilari, kollej talabalari, mutaxassislar va ishbilarmonlarga tilni o'rgatishi mumkin. Va har yili yangi darsliklar, yangi standartlar paydo bo'ladi, jadval yangilanadi, ta'lim jarayoniga qarashlar va yondashuvlar o'zgaradi. O'qituvchilik sohasi doimo rivojlanib bormoqda, o'qituvchi o'zini karuselda o'tirgandek his qiladi va u tezroq va tezroq aylanadi. Qanday qilib professional toliqishdan qochish mumkin? Quyida mazkur masalani biroz yengillatadigan ba'zi omillarga to'xtalib o'tamiz.

**O'qitish – bu jamoaviy ish.** “O'qituvchining toliqishi” ko'plab topshiriqlar, mas'uliyat va doimiy tazyiqlardan kelib chiqqan tushuncha deb atash mumkin. O'qituvchini charchatadigan, limondek siqib suvini chiqaradigan kasbni tanlashga hech kim majbur qilmaganligini va endilikda mashaqqatni faqat o'zi uchun qulay qilishga intilish, kasbidan rohatlanish usullarini yaratish kerakligini ta'kidlash zarur. Kuch olish va ilhomlanishning ko'plab usullari mavjud.

Aksariyat yosh o'qituvchilarning shikoyatlariga duch kelamiz. Aslini olganda o'qituvchilik – bu **jamoaviy ish**. Barcha o'qituvchilar haddan tashqari ish bilan yuklangan. Biroq o'nlab yillar davomida ishlagan tajribali o'qituvchilar ham oz emas, ularning ko'plab tayyor dars rejalari va ajoyib g'oyalari bor. Tushkunlik, sabrsizlik muvaffaqiyatsizlikka olib kelmasdan avval shu tajribali

o'qituvchilardan yordam so'rashlari kerak. Zero, bunday o'qituvchilar savollarga mamnuniyat bilan javob berishadi. Chunki, ular savollarga javob berishni yaxshi ko'radilar. Masalan, hafta kunlarini talabalarga qanday o'qitish haqida kimning fikri bor? Biror o'qituvchi shu mavzuda qo'shiq berishi mumkin. Boshqa bir o'qituvchi haftaning ma'lum bir kunini ifodalovchi rangli qog'ozdan foydalanishini o'rtoqlashadi.

Yana misol: oddiy o'tgan zamonnini qanday qilib samaraliroq o'rgatish kerakligini so'rash mumkin. Tabiiyki, gapirishni, o'rgatishni, savollarga javob berishni xush ko'ruvchi bunday shaxslar yordam qo'lini cho'zadi. Biror o'qituvchi metodika bilan o'rtoqlashadi, boshqasi darslikdagi kerakli sahifani ko'rsatadi, uchinchisi o'zining kitob javonidan kerakli papkani topadi va auditoriyada ishlash uchun topshiriqlarni to'kib, ichidan tanlab beradi. O'qituvchi hamkasblari yordami bilan ko'p vaqtni tejashi mumkin. Qolaversa, har bir o'qituvchining fikrini inobatga olgan holda muammoni turli tomonlardan ko'rish imkonini paydo bo'ladi, bu bebaho tajriba. Ko'p o'tmay, kimningdir dialog topshiriqlarini bajarishda yordam berishini va grammatika uchun yana biror hamkasbiga murojaat qilishni bilib olish mumkin, ammo o'qitish yo'nalishi bundan ham ko'proq. Bunda til o'qituvchilari dunyodagi eng ochiq odamlar ekanligini bilib olish mumkin. Fikr almashishni, muhim savollarni berishni, murakkab muammolarga yechim izlashni o'qituvchi yaxshi ko'radi. Tajribali mutaxassislar bilan ijtimoiy tarmoqni qurish o'qituvchining o'ziga ham tajribali va ilg'or o'qituvchi bo'lishiga imkon beradi. Va bir xil maxsus bilimga ega bo'lgani uchun emas, balki u yoki bu savolni kimga berishni aniq bilib olish mumkin.

Bu Genri Fordning hikoyasini eslatadi, u aqlli bo'lish uchun hamma narsani bilish shart emas, balki u yoki bu ma'lumotni qayerdan olishni bilishdir, deb hisoblaydi. Uning so'zlariga ko'ra, pulda bir qator tugmalar bor va o'ng tugmani bosish orqali har qanday savolga javob olishi mumkin. Savollarga javob topish uchun turli xil umumiy ma'lumotlar bilan vaqt sarflash kerak emas, agar kerakli bilim va ma'lumotlarni taqdim etadigan mutaxassislar bo'lsa, boshqa narsalarga chalg'ish kerak emas.

Muvaffaqiyatli o'qituvchi har qanday savolga javob topa oladi, chunki u kimdan nimani so'rashni va javobni qayerdan qidirishni biladi. O'qituvchi sifatidagi faoliyati shu tarzda osonlashadi. Muhimi, yordam beruvchilar tajribaliroq bo'lishi, istalgan vaqtda o'z fikrlari bilan bo'lishishga tayyor odamlar bo'lishi kerak.

**Baxtli o'qituvchi.** Ikki tadqiqotchi Ellen Skinner va Ketlin Edj [Ellen Skinner] o'z-o'zini anglash bo'yicha kitob yozdilar. Va ular odamlarga toliqishdan qochishga yordam beradigan ikkita omil mavjudligini aniqladilar. Biz ularning birinchisi, ya'ni jamoalar tashkil etish yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi yoki professional hamjamiyat deb ataladigan narsa haqida qayd etdik. Endi ikkinchisiga to'xtalamiz.

Aytishlaricha, toliqmaslik uchun o'qituvchilar o'z-o'zini nazorat qilish tuyg'usiga ega bo'lishi kerak. Nima uchun ba'zi o'qituvchilar o'zlarini nazorat qilinayotgandek his qilishadi, boshqalari esa yo'q?

Shubhasiz, o'qituvchida ba'zi narsalarni nazorat qilish mumkin bo'lgan va ba'zi narsalarni nazorat qilish mumkin bo'lmagan narsalar bor. O'qituvchi istalgan makon va zamonda dars berishi muqarrar. Nazorat tuyg'usini saqlab qolish uchun ko'pincha qanchalik nazoratga ega ekanligi yoki qayerda ekanligini emas, balki mavjud narsalar bilan qanday dars o'tish haqida o'ylash muhim.

Bunda o'qituvchilardan ijodkorlik talab etiladi. Baxtli o'qituvchilarning quyidagi jihatlari bo'ladi:

**Birinchiidan**, ular imkonsiz narsalarga emas, balki qila oladigan narsalarga e'tibor berishadi. O'qituvchilar ko'p vaqtni berilgan erkinlik miqdoridan bahramand bo'lish uchun o'tkazishi kerak. Hatto materiallar, kitoblar, testlar yoki maosh haqida o'ylamasa ham bo'ladi. O'qituvchi o'zi uchun yarata oladigan ko'p erkinliklar bor. O'zi yoqtirgan o'rgatish uslubini yaratishi, istalgan tajribani o'tkazishi, o'qitish imkoniyatlaridan o'zi rohatlanishi kerak. O'qituvchi, o'ziga yuklangan turli xil nazorat vositalariga qaramay, o'z auditoriyasida o'zi yetakchidir. Unda ajoyib imkoniyat borligi va boshqalarga ta'sir o'tkazish uchun erkin ekanligini his qilishi kerak. O'zlari qila olmaydigan narsalarga e'tibor qaratishga moyil bo'lgan o'qituvchilar odatda eng baxtsizdir. Va o'zlari qila oladigan narsalarga e'tibor qaratadigan o'qituvchilar ko'pincha eng ijodiy va eng qiziqarli bo'ladi.

**Ikkinchiidan**, baxtli o'qituvchilar o'zgarishlarni tez qabul qiluvchi bo'ladi. Aslini olganda, ba'zan o'qituvchi istagan yoki qilishingiz zarur bo'lgan ko'p narsalarni amalga oshirish uchun resurslar yetarli bo'lmaydi va bu ayanchli. Ko'pgina mamlakatlarda ba'zi o'qituvchilar darsliklar va yangi texnologiyalar kabi yetarli resurslarga ega emasligidan aziyat chekishadi. Ayrim chekka hududlarda maktablarning tomi bo'lmay, har safar yog'ingarchilik bo'lgani tufayli maktab yopilishi va belgilangan dastur o'zlashtirilmay

qolishi tufayli o'qituvchi maqdasiga erishmagani, o'z imkoniyatlarini ko'rsata olmagan uchun boshqa kasbni, balki o'zi xohlamagan ishni tanlashiga olib keladi. Ayrimlar esa shunchaki proyektor ishlamayotgani yoki internetga kirish imkoni yo'qligidan kuyinishadi. Bu esa dars samarasining tushib ketishiga sabab bo'ladi. Kafedradagi o'qituvchilarning darsdan oldin printer yoki kserokopiyaning buzilib qolgandagi stressini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bularning barchasi o'qituvchini shashtini qaytarishi va o'rgatish qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Ammo, agar ayni damda shasht qaytgan bo'lsa, doimo shunday bo'ladi degani emas...

Har doim o'zgarishlarga yuzma-yuz kela olish katta kuch talab etadi. O'z-o'zini nazorat qilishni susaytiruvchi narsalar haqida o'ylashning o'rniga, o'zining muhitini iloji boricha xotirjam qilishga intilish kerak.

Bunga o'xshagan misollarni ta'lim sohasida ko'plab keltirish mumkin. Ayniqsa o'zbek o'qituvchilaridek jon fido insonlar borki, o'z maoshlaridan bo'lsa ham o'z muhitni yaratadi. Atrof-muhit ta'siriga e'tibor qaratmasdan, uni yaxshilashga harakat qilish orqali o'qituvchi optimist va ko'proq o'z-o'zini nazorat qilish tuyg'usiga ega bo'ladi.

***Uchinidan***, baxtli o'qituvchilar muvozanatni topadilar. Yana bir muammo borki, ba'zan til o'qituvchilarini, doimo o'zlarini o'z kasbiga butunlay baxshida qiluvchilar sifatida ko'rish mumkin. Ular uy vazifalarini tekshirish uchun bir necha kun vaqt sarflashadi. Har bir talaba uchun alohida izoh yozadigan va kechgacha dars rejalarini ko'rib chiqadigan o'qituvchilarni bilamiz. O'qituvchilar o'zlarini butunlay kasbga bag'ishlashsa juda yaxshi. Ammo, buning salbiy tomoni bor. Ayniqsa, har bir ish varag'ini takomillashtirish yoki ulkan afishadagidek kalit so'zini bo'yash uchun son-sanoqsiz soat sarflaydiganlar uchun.

O'qituvchi, avvalo, odam. Inson sifatida o'z qadrini, o'z sog'lig'i va jonini o'ylashga uning odam ekanligini eslatib turish uchun kimdir bo'lishi shart emas. Bolalari bilan muzqaymoq yeyish, turmush o'rtog'i bilan kinoga borish, do'stiga qo'ng'iroq qilish, sevimli mashg'uloti bilan shug'ullanishga haqli bo'lgan odam u. Dunyodagi eng yaxshi o'qituvchilar o'z qalblarini talabalarga berishadi, lekin shu bilan birga o'z hayotlarini ham yaxshi o'tkazadilar va o'zlarini qiziqarli odamlarga aylantiradilar. Sevimli mashg'ulotga ega bo'lish, qandaydir mashg'ulotdan zavqlanish o'qituvchini quvvatlantiradi va doimiy shikoyatlardan xalos etadi.

**To'rtinchidan**, baxtli o'qituvchilar o'qitishning moddiy manfaatini qadrlashadi. O'qituvchilik kasbi ko'pincha katta maoshni kafolatlamaydi. Ammo bu uning mukofotsiz qolganini anglatmaydi. Ba'zan mukofotlar, bonuslar bo'ladi. Talabalarining qozongan muvaffaqiyatlarga e'tibor berilsa, ularning hayotiga ijobiy zavq beradi, ilhomlantiradi. Oxir-oqibat, pul tufayli o'qituvchi bo'lishdan bosh tortganlarga havas qilmay qoladi. Va bu eng muhim narsa. Avvalo, tilning otash ekanligini va har bir o'quvchini olov yoqishga harakat qilayotganligini unutmaslik kerak.

**Hamming masofasi.** Hamming masofasi - tabiiy tilni qayta ishlash yo'nalishida teng uzunlikdagi ikki satr (so'z yoki so'zlar jamlanmasi) orasidagi mos belgilari turli xil bo'lgan o'rinlar sonidir. Boshqacha qilib aytganda, u bir qatorni boshqasiga o'zgartirish uchun zarur bo'lgan o'zgartirishlarning minimal sonini yoki bitta qatorni boshqasiga o'zgartirishi mumkin bo'lgan xatolarning minimal sonini o'lchaydi. Umumiyroq matnda Hamming masofasi ikki ketma-ketlik orasidagi tahrirlash masofasini o'lchash uchun bir nechta qator ko'rsatkichlaridan biridir. Hamming masofasi amerikalik matematik olim Richard Hamming sharafiga nomlangan. 1950-yilda Hamming kodlari, Xatolarni aniqlash va xatolarni tuzatish kodlari haqidagi fundamental maqolasida konsepsiyani kiritgan. Bitlarning Hamming masofasi tahlili axborot texnologiyalari, kodlash nazariyasi va kriptografiya kabi bir qancha fanlarda qo'llaniladi. [Bill, 2020, 206]

Algoritmni tahlil qilish jarayonida berilgan satrlarning mos

belgilarini o'zaro taqqoslash hamda Hamming masofasini aniqlovchi o'zgaruvchi olishimiz va uni doimo o'zgarishlar jarayonida oshirib borishimiz talab qilinadi. Misol qilib "daftar" hamda "maktab" so'zlardan foydalanilganda ular orasidagi Hamming masofasini hisoblash ko'rsatilgan.



### 1-rasm. Hamming masofasini aniqlashga oid misollar

Boshqacha qilib aytganda, "daftar" so'zidan "maktab" so'zini hosil qilishimiz uchun 3 ta belgini o'zgartirish yetarli bo'ladi. Satrlarda belgilar soni tengligi orqali natijaga erishishimiz uchun faqatgina belgilar almashuvini qo'llashimiz yetarli bo'ladi. Xuddi shu usulda quyidagi misollarda ham Hamming masofasi hisoblanadi.

1. "kun" va "tun" bir xil uzunlikdagi so'zlar aynan 1 ta turli belgiga ega demak, ular orasidagi Hamming masofasi 1 ga teng bo'ladi.

2. "uycha" va "uyat" so'zlarida o'zbek tilida ikkala so'z ham 4 ta harfdan iborat, lekin belgilar soni turli (mos ravishda 5 ta va 4 ta) bo'lganligi sababli Hamming masofasini aniqlashning iloji yo'q.

3. 00010011 va 01010111 ikkilik sanoq sistemasiga tegishli bo'lgan ushbu sonlar orasidagi 3-va 6-belgilar farq qilganligi sababli Hamming masofasi 2 ga teng.

O'zgarmas n uzunlikdagi satr uchun Hamming masofasi n uzunlikdagi so'zlar to'plamining ko'rsatkichidir (hamming fazosi deb ham ataladi). Chunki u musbat va simmetriya shartlarini bajaradi. Agarda ikki so'zning Hamming masofasi 0 ga teng bo'lsa, ular aynan bir xil bo'ladi. Bundan tashqari ushbu qiymatlar uchburchak tengsizligini ham qanoatlantiradi. Haqiqatan ham, agar uchta a, b va c so'zlari ko'riladigan bo'lsa, a satrning i-o'ringidagi qiymati

b satrning i-o'rindagi qiymati va c satrning xuddi shu qiymatlari solishtiriladigan bo'lsa nazariya to'g'riligini ko'rish mumkin bo'ladi. Demak, a va c orasidagi Hamming masofasi a va b hamda b va c orasidagi Hamming masofalarining yig'indisidan katta emas. Ikkita ikkilik sanoq sistemasidagi a va b qiymatlar uchun Hamming masofasi a XOR b dagi birlar soniga teng. Ushbu qiymat esa kodlash nazariyasida xatolikni aniqlash va xatolarni tuzatish yo'nalishida foydalaniladi [Derek, 2003, 255].

Tabiiy tilni qayta ishlash yo'nalishida qisqa uzunlikdagi so'zlar orasidagi masofalarni aniqlash hamda ularni to'g'irlash orqali foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari kodlash nazariyasi sohasida ham ikkilik sanoq sistemasida berilgan xatoliklarni aniqlash va bartaraf etish uchun samarali yechim bo'la oladi. Katta hajmdagi matn yoki hujjatlar uchun foydalanish uchun yuqori samaradorlikka ega emas.

#### **Psevdokodi**

```
function hamming_masofasi(a,b)
    indicator ← 0
    len1 ← length(a)
    for n from 1 to len1 do
        if a[n] <> b[n] then
            indicator ← indicator + 1
    return indicator
end
```

#### **Algoritmining Python dasturlashga tatbiq qilinishi.**

Hamming masofasini hisoblovchi funksiya yaratiladi hamda unga 2 ta satr elementlari qabul qilinadi. Funksiya ishlash jarayonida berilgan qiymatlarning har bir belgisini o'zaro tekshiradi hamda yakuniy qiymatni qaytaradi.

```
def hamming_masofasi (satr1, satr2):
    masofa_hisoblovchi = 0
    for n in range(len(satr1)):
        if satr1[n]!=satr2[n]:
            masofa_hisoblovchi += 1
    return masofa_hisoblovchi
```

**Levenshteyin masofasi.** Levenshteyin masofasi (**Levenshteyin distance**) — tabiiy tilni qayta ishlash yo'nalishida Levenshteyin masofasi ikki satr (bir yoki bir nechta so'zlar) o'rtasidagi masofani o'lchash uchun qo'llanadigan ko'rsatkichidir. Boshqacha qilib aytganda, ikki so'z orasidagi Levenshteyin masofasi bir so'zni boshqasiga o'zgartirish uchun zarur bo'lgan tahrirlarning



(qo'shish, o'chirish yoki almashtirish) minimal soni hisoblanadi. Bu masofani 1965-yilda Vladimir Levenshteyin sharafiga nomlangan. Levenshteyin masofasini **tahrirlash masofasi** deb ham atash mumkin. Vladimir Iosifovich Levenshteyin - rus olimi bo'lib, u axborot texnologiyalari, xatolarni to'g'rilash nazariyalari va kombinator dizayni bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Fanga qo'shgan boshqa hissalar orasida u 1965-yilda ishlab chiqqan Levenshteyin masofasi va Levenshteyin algoritmi mashhur [Levenshteyin, 1966].

Demak algoritm a satrni b satrga aylantirish uchun zarur bo'lgan o'zgarishlarning minimal sonini aniqlashda foydalaniladi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda 3 xildagi amallar qo'llaniladi: belgi qo'shish, o'chirish hamda almashtirish. Ushbu algoritmda satrlar uzunligi bir xil bo'lishi talab qilinmaydi. Ushbu nazariyaning samaradorligini oshirish maqsadida pastdan yuqoriga dinamik dasturlashning namunasi bo'lgan algoritm 1974-yilda Robert A. Vagner va Maykl J. Fisherning "Satrdan-satrga tuzatish muammosi" maqolasida muhokama qilingan.

Levenshteyin masofasidan tabiiy tilni qayta ishlash yo'nalishida so'zlarning o'zaro mosligini aniqlashda foydalanish mumkin. Bunda asosiy maqsad kam sonli farqlar kutilgan vaziyatlarda, berilgan matnlardagi satrlar o'xshashligini aniqlash bo'ladi. Bu esa masalan, imlo tekshiruv, optik belgilarni aniqlash uchun tuzatish tizimlari va tarjima xotirasi asosida tabiiy tilga tarjima qilishga yordam beradigan dasturiy ta'minotlar uchun asosiy qismlardan biri sifatida xizmat qila oladi. Optik belgilarni aniqlash yoki optik belgilarni o'quvchi dasturlar - skanerlangan hujjat, qo'lyozma fotosurati yoki subtitrdan bo'ladimi, qo'lda yozilgan yoki bosilgan matn tasvirlarini mashina tiliga elektron yoki mexanik aylantirish jarayonlaridan tashkil topadi. Bundan tashqari ushbu o'xshashlikdan plagiatni tekshirish kabi maqsadlarda foydalanish muvaffaqiyatli natija beradi. Bundan tashqari taxminiy satrlarni moslashtirish jarayonida ham keng qo'llaniladi. Taxminiy satrlarni moslashtirish (ko'pincha so'zlashuv tilida noaniq satrlarni qidirish deb ataladi) aniq bo'lmagan ko'rinishdagi namunalariga mos keladigan satrlarni topish usulidir. Taxminiy satrlarni moslashtirish muammosi odatda ikkita kichik muammoga bo'linadi: berilgan satr ichida taxminiy namuna mosliklarini topish va namunaga taxminan mos keladigan satrlarni topish.

Levenshteyin masofasi bir nechta oddiy yuqori va quyi chegaralarga ega. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Berilgan ikki satrlar uzunliklari orasidagi farq.

2. Uzunligi kattaroq bo'lgan satrning uzunlik qiymatini aniqlovchi birlik.

3. Agar satrlar bir xil uzunlikka ega bo'lsa ular orasidagi farq 0 ga teng.

4. Agar satrlar bir xil o'lchamga ega bo'lsa, Hamming masofasi Levenshteyin masofasining yuqori chegarasi hisoblanadi.

5. Ikki satr orasidagi Levenshteyin masofasi ularning uchinchi satr bilan o'zaro Levenshteyin masofalarining yig'indisidan katta emas (uchburchak tengsizligi o'rinli).

Levenshteyin masofasini ikkita uzunroq satrlar orasida ham hisoblash mumkin, ammo uni hisoblash uchun sarflanadigan vaqt, bu ikki satrlar uzunligiga taxminan proporsional bo'lib, buni amaliy jarayonlarda foydalanish nisbatan kamroq unumdorlikka sabab bo'ladi. Shunday qilib, taqqoslash tezligini yaxshilash maqsadida odatda qisqa satrlardan foydalaniladi.

Quyidagi misollar orqali nazariy bilimlarni amaliy ko'rinishga olib kelish mumkin.

1. "olma" so'zidan "olmaxon" so'zini hosil qilish uchun so'zning davomiga "x", "o" va "n" harflarini qo'shish orqali natijaga erishiladi. Bunda umumiy 3 o'zgarish, ya'ni qo'shish amalga oshirildi. Demak Levenshteyin masofasi 3 ga teng bo'ladi.

2. Yuqoridagi misolni teskari holati qaraladigan bo'lsa, "olmaxon" so'zidan "olma" so'zini hosil qilish uchun 3 o'zgarishni, ya'ni so'z oxiridagi 3 harfni o'chirishni amalga oshirish talab qilinadi. Bu vaziyatda ham Levenshteyin masofasi 3 ga teng bo'ladi.

3. "men" so'zi xatolik tufayli "man" kabi yozilgan vaziyatda Levenshteyin masofasi nechta o'zgartirish orqali to'g'ri so'zga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Bu vaziyatda faqat "a" harfini "e" harfiga o'zgartirish yetarli. Demak Levenshteyin masofasi 1ga teng.

Endi umumiy vaziyatda Levenshteyin masofasini yanada chuqurroq tushunish maqsadida quyidagi o'zbek tiliga oid bo'lgan "matematika" hamda "maktab" so'zlari ko'rib chiqiladi. Berilgan "matematika" so'zidan "maktab" so'zini hosil qilish uchun o'zaro mos tushuvchi harflarni belgilab olish hamda boshqa belgilar uchun o'zgarishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

1. M, A harflaridan so'ng K harfini qo'shish (1 ta o'zgarish)

2. 1- T harfidan so'ng E, M harflarini o'chirish (2 ta o'zgarish)

3. 2- T harfini B harfiga almashtirish (1 ta o'zgarish)

4. 2- T harfidan so'ng I, K va A harflarini o'chirish (3 ta o'zgarish)

			BELGI QO'SHISH		BELGI O'CHIRISH	BELGI O'CHIRISH		BELGI ALMASHTIRISH	BELGI O'CHIRISH	BELGI O'CHIRISH	BELGI O'CHIRISH
a=	M	A		T	E	M	A	T	I	K	A
b=	M	A	K	T			A	B			

## 2-rasm. Levenshteyin masofasini aniqlashga oid misollar

O'zgarishlar soni: 1ta belgi qo'shish, 1ta belgi almashtirish va 5ta belgini o'chirish. Demak, Levenshteyin masofasi = 7ga teng bo'ladi.

**Levenshteyin jadvali** - bu 2 o'lchamli massiv bo'lib,  $lev[i][j]$  - Levenshteyin masofasining qiymatiga teng bo'ladi. Bunda:  $i = 'a'$  satr uzunligi va  $j = 'b'$  satr uzunligi [Grashchenko, 2022]

$$lev_{a,b}(i, j) = \begin{cases} \max(i, j) & \text{Agar } \min(i, j) = 0, \\ \min \begin{cases} lev_{a,b}(i-1, j) + 1 \\ lev_{a,b}(i, j-1) + 1 & \text{aks holda} \\ lev_{a,b}(i-1, j-1) + 1 & (a_i \neq b_j) \end{cases} \end{cases}$$

## 3-rasm. Levenshteyin jadvalini hosil qilish qoidasi

Berilgan formula orqali Levenshteyin jadvali hosil qilinadi.

	i→	M	A	T	E	M	A	T	I	K	A
j↓	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
M	1	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
A	2	1	0	1	2	3	4	5	6	7	8
K	3	2	1	1	2	3	4	5	6	6	7
T	4	3	2	1	2	3	4	4	5	6	7
A	5	4	3	2	2	3	3	4	5	6	6
B	6	5	4	3	3	3	4	4	5	6	7

## 4-rasm. Levenshteyin jadvali

### Pseudokodi

```
function LEVDIST(a,b)
  if a.size() == 0 then
    return b.size();
  end
  if b.size() == 0 then
    return a.size();
  end
  indicator ← a[0] 0 ≠ b[0] ? 1 : 0;
  return Minimum(
```

```

LEVDIST(a.substr(1),b)+1, //
o'chirish;
LEVDIST(b.substr(1),a)+1, //
qo'shish;
LEVDIST(a.substr(1),b.substr(1))+indicator); //
almashtirish;
end

```

**Python dasturlash tiliga tatbig'i.** Avvalambor, berilgan satrlar uzunligi orqali maxsus Levenshteyin jadvalimizni hosil qilamiz. Keyingi qadamlarni kerakli bo'lgan qiymatlarni hisoblash hamda ularni maxsus jadvalga saqlash orqali olib boriladi.

```

#Levenshteyn algoritmi
# 'a' va 'b' qiymatlarni aniqlash:
a = "matematika"
b = "maktab"

# lev o'zgaruchi massivini rows = len(a) + 1 va
columns = len(b) + 1 orqali kiritish
lev = [[0 for i in range(len(b) + 1)] for j in
range(len(a) + 1)]

# Birinchi qatordagi(row) sonlarni aniqlash:
for i in range(len(a) + 1):
lev[i][0] = i
# Birinchi ustundagi(column) sonlarni aniqlash:
for j in range(len(b) + 1):
lev[0][j] = j

for i in range(1, len(a) + 1):
    for j in range(1, len(b) + 1):
        if a[i - 1] == b[j - 1]:
            lev[i][j] = lev[i - 1][j - 1]
        else:
            insertion = 1 + lev[i][j - 1]
            deletion = 1 + lev[i - 1][j]
            replacement = 1 + lev[i - 1][j - 1]

```

# Eng foydali o'zgarishni

tanlash:

lev[i][j] = min(insertion,

deletion, replacement)

#Levenshtein Masofasini ekranga chiqar

print("Levenshtein Masofasi: ", lev[len(a)][len(b)])

**Kosinus o'xshashligi** – bu ikki obyekt bir-biriga qanchalik o'xshashligini aniqlash usuli. Bunda obyektlarning maxsus xususiyatlariga va ushbu xususiyatlarning qancha miqdoriga ega ekanligi qaraladi. Ikki obyekt o'xshash, agar ularning xususiyatlari va mos miqdorlari o'xshash bo'lsa. Kosinus o'xshashligining qiymatini hisoblashda chiziqli algebradan foydalaniladi. Demak, obyektlarning maxsus qiymatlari ularga mos son ko'rinishiga olib kelinadi hamda obyekt esa ushbu sonlar umumiydashgan maxsus vektor sifatida qaraladi va kosinus o'xshashligi vektorlar orasidagi burchakning kosinusi orqali aniqlanadi (xususiyatlar soniga qarab bu vektorlar n o'lchamli fazoda bo'lishi mumkin). Bundan kelib chiqadiki, kosinus o'xshashligi qiymati doimo [-1,1] oralig'iga tegishli bo'ladi. Kosinus o'xshashligi 0ga teng bo'lganda (burchak 90) hech qanday o'xshashlik topilmaydi, kosinus o'xshashligi 1ga yaqinlashgan sari vektorlar orasidagi burchak kichrayadi va o'xshashlik ortadi, aksincha burchak ortgan sari kosinus o'xshashligi qiymati kamayadi, natijada ular o'zaro farqli ekanligi aniqlanadi. Kosinus o'xshashligi murakkablik darajasi yuqori bo'lmaganligi va muammoga tatbiq qilinish jarayoni oson bo'lganligi bois turli sohalarda qo'llanilib keladi [<https://en.wikipedia.org>].

Matnlarning (hujjatning) o'xshashligini aniqlashda yuqoridagi berilgan usullarga nisbatan ancha samaraliroq usul hisoblanadi. Bundan tashqari matnlar o'xshashligini tekshirish plagiatni aniqlash hamda oldini olishda ham keng foydalaniladi. Bu esa mualliflik huquqini himoya qilish uchun ham samarali usul sifatida ko'rilishi mumkin. Maktab, litsey, kollej va universitet talabalarining vazifalar va imtihonlar jarayonida topshirgan ishlaridan ularning bu vazifalarga yondashuvini aniqlash mumkin bo'ladi. Kosinus o'xshashligi ma'lumotlarni qazib olish, axborot qidirish va matnni moslashtirish jarayonlarida ham qo'llaniladi. Vektorlar o'zgaruvchining xususiyatlariga tayinlangandan so'ng, o'lchov obyektlar orasidagi o'xshashlikni tushunish uchun qimmatli vositaga aylanadi. Ma'lumotni qazib olish - bu ma'lumotlarni tahlil qilish orqali biznes muammolarini hal qilishga yordam beradigan

namuna va munosabatlarni aniqlash uchun katta ma'lumotlar to'plamini saralash jarayonidir. Ma'lumotni qazib olish texnikasi va vositalari korxonalariga kelajakdagi tendensiyalarni bashorat qilish va ko'proq ma'lumotga ega biznes qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Axborot qidirish - bu hujjatdagi ma'lumotlarni qidirish, hujjatlarning o'zini qidirish, shuningdek, ma'lumotlarni tavsiflovchi metama'lumotlarni, matnlar, tasvirlar yoki tovushlar ma'lumotlar bazalaridan qidirish haqidagi fandır.

**Xususiyatlari.** Kosinus o'xshashligining eng diqqatga sazovor xususiyati shundaki, u individual vektor o'lchamlarini mutlaq emas, balki nisbiy taqqoslashni aks ettiradi. Har qanday konstanta  $a$  va vektor  $V$  uchun  $V$  hamda  $aV$  vektorlari maksimal darajada o'xshashdir. Shunday qilib, o'lchov chastotasi mutlaq qiymatlardan muhimroq bo'lgan ma'lumotlar uchun mos keladi. Biroq, Jensen-Shannon, SED va ucburchak divergensiya kabi axborot nazariyasiga asoslangan so'nggi o'lchovlar hech bo'lmaganda ba'zi kontekstlarda yaxshilangan vaziyatda barqaror semantikaga ega ekanligi ko'rsatiladi.

Kosinus o'xshashligi Evklid masofasi bilan bog'liq ekanini ham ta'kidlab o'tish lozim. Vektorlar orasidagi Evklid masofasi, ular ichidagi kvadrat qiymatlarning birlik yig'indisining normallashtirilgan holati sifatida aniqlanadi. [Connor, 2016]

Kosinus o'xshashligi quyidagi maxsus matematik formula orqali aniqlanadi.

$$\text{cosine similarity} = S_C(A, B) := \cos(\theta) = \frac{\mathbf{A} \cdot \mathbf{B}}{\|\mathbf{A}\| \|\mathbf{B}\|} = \frac{\sum_{i=1}^n A_i B_i}{\sqrt{\sum_{i=1}^n A_i^2} \sqrt{\sum_{i=1}^n B_i^2}},$$

### 5-rasm. Kosinus o'xshashligini aniqlovchi matematik formula


Quyida matnlar faqat 2 so'zdan tashkil topgan 2 xil matn va ularda qatnashgan so'zlarning soniga nisbatan 2 o'lchamli dekart koordinatalar sistemasida vektorlar sifatida tasvirlangan (berilgan misol tasavvur qilish va tasvirlash oson bo'lishi uchun tanlangan).

1- matn: {ruchka, daftar, daftar, ruchka, daftar, ruchka, ruchka}

2- matn: {daftar, ruchka, daftar, daftar, ruchka, daftar, daftar, ruchka, ruchka, ruchka, daftar, daftar, daftar} dan tashkil topgan bo'lsin.

So'zlarni matnda uchragan o'rinlariga nisbatan mos sonlar bilan almashtiramiz va maxsus vektorlarni hosil qilib olamiz.

1- matnda 3 ta daftar va 4 ta ruchka uchragani bois, daftar 3 va ruchka so'zi esa 4 soni bilan almashtiriladi hamda (3;4) nuqtasi hosil qilinadi. Xuddi shunday usulda 2-matndan mos ravishda (8;6) nuqtasi hosil qilinadi. So'ngra koordinatalar boshiga nisbatan vektorlar hosil qilinib, ular orasidagi burchak kosinusi hisoblanadi.



$$\text{Kosinus o'xshashligi} = \frac{3 \cdot 8 + 4 \cdot 6}{\sqrt{3^2 + 4^2} \cdot \sqrt{8^2 + 6^2}} = \frac{24}{25} = 0.96 \text{ ga teng.}$$

Bundan tashqari ko'proq so'zlardan tashkil topgan matnlar orqali so'zlarning takrorlanish darajalarini quyidagicha jadvalga mos ravishda joylashtirib chiqiladi.

Hosil bo'lgan so'zlardan tashkil topgan setlar hosil qilinadi hamda ular orqali umumiy kalit so'zlarga ega to'plam yasaladi. Qiymatlarni maxsus vektorlarga aylantirish orqali yuqorida berilgan formuladan foydalanib kosinus o'xshashligi hisoblab chiqiladi [<https://www.itl.nist.gov>].

Hujjat	jamo	murabbiy	jarima	futbol	basketbol	zarba	g'alaba
Hujjat 1	1	1	0	2	1	0	2
Hujjat 2	2	3	0	3	2	1	3
Hujjat 3	1	2	1	2	3	1	0
Hujjat 4	0	2	3	3	1	1	2

6-rasm. Kosinus o'xshashligi jadvali

**“Yumshoq” kosinus o'lchovi** - ikki vektor orasidagi berilgan obyektning xususiyatlar juftligi o'rtasidagi o'xshashlikni hisobga oladi. An'anaviy kosinus o'xshashligi vektor fazo modelining (VFM) xususiyatlarini mustaqil yoki butunlay boshqacha hisoblaydi, yumshoq kosinus o'lchovi esa VFMdagi xususiyatlarining

o'xshashligini hisobga olishni taklif qiladi, bu an'anaviy kosinus o'xshashligiga nisbatan qo'shimcha ma'lumotlar talab qiladi [Connor, 2016].

Masalan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida so'zlarning xususiyatlari o'rtasidagi o'xshashlik juda intuitivdir. Shuning uchun ulardan qo'shimcha ma'lumotlar talab qilinishi aniqlik darajasini oshirishga yordam beradi. Misol uchun, "misol" va "boshqotirma" so'zlari tarkiban turli xil so'zlar va shuning uchun VFMning turli nuqtalarida ko'rsatiladi. Biroq ular ma'no jihatidan bir-biriga bog'liqdir.

Yumshoq kosinusni hisoblash uchun s o'zgaruvchi tanlanadi va matritsasi xususiyatlari orasidagi o'xshashlikni ko'rsatish uchun ishlatiladi. N o'lchamli fazoda a va b vektorlari orasida yumshoq kosinus o'xshashligi quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{soft\_cosine}_1(a, b) = \frac{\sum_{i,j}^N s_{ij} a_i b_j}{\sqrt{\sum_{i,j}^N s_{ij} a_i a_j} \sqrt{\sum_{i,j}^N s_{ij} b_i b_j}},$$

7-rasm. Formula

$s_{(i,j)} = o'xshashlik(xususiyat_i, xususiyat_j)$  agar xususiyatlar o'rtasida o'xshashlik bo'lmasa 0ga, aks holda 1ga teng. Berilgan tenglama an'anaviy kosinus o'xshashlik formulasiga ekvivalentdir [Sidorov, Velasquez, Stamatatos, 2013, 1].

#### Psevdokodi

```
function CosineDist(a,b):
X_list <- TOKENIZE(LOWERCASE(a));
Y_list <- TOKENIZE(LOWERCASE(b));
X_set <- REMOVE_STOPWORDS(X_list);
Y_set <- REMOVE_STOPWORDS(Y_list);
l1 = CREATE_VECTOR(X_set);
l2 = CREATE_VECTOR(Y_set);
return COSINE(l1,l2)
end
```

#### Kosinus o'xshashligining python dasturlash tiliga tatbig'i

```
l1 = []; l2 = []
# berilgan gaplar to'plamlari
X_set = {'men', 'har', 'kuni', 'maktabga', 'boraman'}
Y_set = {'maktabga', 'bugun', 'men', 'barvaqt', 'bordim'}
# ikkala satrning kalit so'zlarini o'z ichiga olgan
```



to'plam hosil qilamiz

```
rvector = X_set.union(Y_set)
```

```
for w in rvector:
```

```
    if w in X_set: l1.append(1) # maxsus vektor
```

yaratamiz

```
    else: l1.append(0)
```

```
    if w in Y_set: l2.append(1)
```

```
    else: l2.append(0)
```

```
    c = 0
```

```
# kosinus formulasi
```

```
for i in range(len(rvector)):
```

```
    c+= l1[i]*l2[i]
```

```
    cosine = c / float((sum(l1)*sum(l2))**.5)
```

```
print("kosinus o'xshashligi: ", cosine)
```

```
Natijada: kosinus o'xshashligi 0.4
```

## Xulosa

So'zlar orasidagi masofa qiymatini tavsiflovchi bir qancha qiymatlar mavjud. Ulardan Hamming, Levenshteyin masofalari va Kosinus o'xshashligini yuqorida ko'rib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, har bir nazariyada kelib chiqadigan natija hamda ularning samaradorligi orqali o'zining ishlatilish o'rnini aniqlash mumkin. Aynan bir xil belgilar bilan boshlanuvchi so'zlarni tekshirgan vaziyatda, Hamming masofasi boshqalarga nisbatan tabiiy tilni qayta ishlash jarayonida soddaroq hamda samaraliroq bo'ladi. Biroq, satrlar hajmi ortishi hamda farq qiluvchi nuqtalar o'zgarishi bilan Levenshteyin masofasi samaradorlik darajasi yuqoriga ko'tariladi. Bundan tashqari, yuqorida berilgan nazariyalar orasida, katta hajmdagi matn yoki hujjatlar bilan ishlagan vaziyatda Kosinus o'xshashligi eng munosib tanlov bo'ladi. Demak, Hamming masofasini boshlang'ich asos deb qaraladigan bo'lsa, Levenshteyin masofasini uning so'zlarga nisbatan mukammalroq vaziyati, shu bilan birgalikda, Kosinus o'xshashligi esa so'zlar jamlanmasi bo'lgan matnlar yoki hujjatlar bilan ishlash uchun eng munosib nazariya sifatida qaraladi.

## Adabiyotlar:

Waggener Bill. Pulse Code Modulation Techniques. Springer. p. 206. ISBN. Retrieved 13 June, 2020.

Robinson, Derek J. S. (2003). An Introduction to Abstract Algebra. Walter de Gruyter. pp. 255–257. ISBN.

- Levenshteyn, Vladimir I. (February 1966). "Binary codes capable of correcting deletions, insertions, and reversals". *Soviet Physics Doklady*.
- Levenshteyn Distance Computation by Sergey Grashchenko November 16, 2022. <https://www.baeldung.com/cs/Levenshteyn-distance-computation>
- Cosine similarity [https://en.wikipedia.org/wiki/Cosine\\_similarity](https://en.wikipedia.org/wiki/Cosine_similarity)
- Connor, Richard (2016). *A Tale of Four Metrics. Similarity Search and Applications*. Tokyo: Springer.
- Cosine distance, cosine similarity, angular cosine distance, angular cosine similarity. <https://www.itl.nist.gov/div898/software/dataplot/refman2/auxillar/cosdist.htm>.
- Understanding cosine similarity and its application. Richmond Alake Sep 15, 2020. Connor, Richard (2016). *A Tale of Four Metrics. Similarity Search and Applications*. Tokyo: Springer.
- Sidorov, Grigori; Velasquez, Francisco; Stamatatos, Efstathios; Gelbukh, Alexander; Chanona-Hernández, Liliana (2013). *Advances in Computational Intelligence. Lecture Notes in Computer Science*. Vol.7630. LNAI 7630. pp.1-11.

## The use of word distance algorithms in natural language processing

Nizomaddin Xudayberganov<sup>1</sup>  
Shaxboz Khasanov<sup>2</sup>

### Abstract:

Distance between words - can be characterized according to different qualities of words. Different algorithms are proposed in the direction of natural language processing to determine their similarity according to their component. These algorithms differ from each other in their places of use and performance. It is mainly used in areas such as spell check, speech recognition and plagiarism detection. This article analyzes the algorithms used to determine the similarity distance of more than one word and their characteristics.

---

<sup>1</sup>*Xudayberganov Nizomaddin Uktamboy o'g'li* – Teacher of the Department of Computer Linguistics and Digital Technologies of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** [nizomaddin@navoiy-uni.uz](mailto:nizomaddin@navoiy-uni.uz)

**ORCID:** 0000-0002-6213-3015

<sup>2</sup>*Hasanov Shaxboz G'olibjon o'g'li* – student, The INHA University in Tashkent.

**E-mail:** [shaxbozhsh@gmail.com](mailto:shaxbozhsh@gmail.com)

**ORCID:** 0000-0002-2368-2863

**For reference:** Xudayberganov N., Khasanov Sh. 2022. "The use of word distance algorithms in natural language processing". *Uzbekistan: language and culture. Applied philology*. 2 (5): 69-83.

**Key words:** *Hamming distance, Levenshteyin distance, Cosine similarity, similarity table, coding theory.*

**References:**

- Waggener Bill. Pulse Code Modulation Techniques. Springer. p. 206. ISBN. Retrieved 13 June, 2020.
- Robinson, Derek J. S. (2003). An Introduction to Abstract Algebra. Walter de Gruyter. pp. 255–257. ISBN.
- Levenshteyin, Vladimir I. (February 1966). "Binary codes capable of correcting deletions, insertions, and reversals". Soviet Physics Doklady.
- Levenshteyin Distance Computation by Sergey Grashchenko November 16, 2022. <https://www.baeldung.com/cs/Levenshteyin-distance-computation>
- Cosine similarity [https://en.wikipedia.org/wiki/Cosine\\_similarity](https://en.wikipedia.org/wiki/Cosine_similarity)
- Connor, Richard (2016). A Tale of Four Metrics. Similarity Search and Applications. Tokyo: Springer.
- Cosine distance, cosine similarity, angular cosine distance, angular cosine similarity. <https://www.itl.nist.gov/div898/software/dataplot/refman2/auxillar/cosdist.htm>.
- Understanding cosine similarity and its application. Richmond Alake Sep 15, 2020. Connor, Richard (2016). A Tale of Four Metrics. Similarity Search and Applications. Tokyo: Springer.
- Sidorov, Grigori; Velasquez, Francisco; Stamatatos, Efstathios; Gelbukh, Alexander; Chanona-Hernández, Liliana (2013). Advances in Computational Intelligence. Lecture Notes in Computer Science. Vol.7630. LNAI 7630. pp.1–11.

## KORPUS LINGVISTIKASI

## Fe'l grammatik shakllarining uslubiy xoslanishiga ko'ra lingvistik annotatsiyalash masalasi xususida

Dilrabo Elova<sup>1</sup>

### Abstrakt:

Jahon tilshunosligida jadal rivojlanayotgan kompyuter lingvistikasi yo'nalishida tabiiy tilga ishlov berish, so'rov berish va javob olish sifatini yaxshilash, lingvistik tadqiqot, lingvodidaktika, leksikografiya korpuslardan foydalanish dolzarb masalaga aylandi. Tilshunoslikda, xususan, kompyuter lingvistikasi sohasida korpus birliklarini tanlash, ularni lingvistik, jumladan, morfologik, semantik, sintaktik va stilistik teglash, stilistik teglar tizimini ishlab chiqish, til korpusi uchun maxsus axborotlarni qamrab olgan uslubiy xoslanishni farqlovchi lingvistik ta'minot yaratish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Fe'l so'z turkumi grammatik kategoriyalarga boy so'z turkumi bo'lib, ana shu shakllar lug'aviy birliklar singari turli uslubiy ma'nolarni anglatadi. Birgina fe'lning o'zida ish-harakat jarayoni va uning tavsifi, harakatning tez yoki sekin bajarilishi, takrorlanishi, bajarilish-bajarilmasligi, harakat bajaruvchisining soni, bajarilish payti kabi qator semantik grammatik ottenkalar ifodalanadi.

Ushbu maqolada fe'lning lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarini uslubiy xoslanishiga ko'ra annotatsiyalash tamoyillari, ularning teglar tizimi, o'zbek tili milliy korpusida uslubiy xoslanganlik belgisi bo'yicha avtomatik ishlov berishning ahamiyati va uslubiy xoslanganlik belgisi bo'yicha qidiruv parametrlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** *fe'l, lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi, fe'lning mayl shakllari, fe'l zamon shakllari, fe'lning vazifa shakllari, fe'l nisbat shakllari lingvistik annotatsiya, nutq uslublari, uslubiy teglashtirish.*

### Kirish

Til korpuslarida adabiy til bilan birga noadabiy leksika ham o'rin oladi. Buning sababi shuki, zamonaviy korpus birliklari –

---

<sup>1</sup>Elova Dilrabo Qudratilloevna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**E-pochta:** elova@navoiy-uni.uz

**ORCID:** 0000-0002-2329-1811

**Iqtibos uchun:** Elova D. 2022. "Fe'l grammatik shakllarining uslubiy xoslanishiga ko'ra lingvistik annotatsiyalash masalasi xususida". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya.* 2 (5): 84-96.

korpus tarkibidagi matnlar internet manzillari orqali (ma'lum bir ishlovdan so'ng) avtomatik ravishda korpusga qabul qilinadi. Shu sababli milliy korpus tuzuvchilari korpusda turli uslub va nutq shakllariga oid matnlar proporsiyasi, ya'ni milliy tilning barcha qirralarini ko'rsatuvchi reprezentativlik masalasiga alohida e'tibor berishlari talab qilinadi.

*Annotatsiya yoki razmetka tushunchalari va uning korpus tuzishdagi ahamiyati.* Turli lingvistik muammolarni hal qilish uchun faqat matnlar majmuasiga ega bo'lish yetarli emas. Matnlarda turli qo'shimcha lingvistik va ekstralingvistik ma'lumotlar talab qilinadi. Shu ehtiyojdan kelib chiqib, korpus tilshunosligida annotatsiyalangan korpus tushunchasi paydo bo'ldi. Annotatsiyalash (teglash, izohlash, razmetkalash; inglizcha tagging, annotation) matn va uning tarkibiy qismlariga maxsus teg (razmetka, izohlar) birliktirishdan iborat.

Uning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1) tashqi, ekstralingvistik (muallif haqidagi ma'lumot, matn haqidagi ma'lumot: muallif, unvon, nashr etilgan yil va joy, janr, mavzu; muallif haqidagi ma'lumotlar nafaqat uning ismini, balki yoshi, jinsi, hayot yillari va boshqalarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu ma'lumotni kodlash metateglash yoki metarazmetka deb ataladi);

2) tarkibiy (bob, paragraf, jumla, so'z shakli) va lingvistik tavsiflovchi, matn elementlarining grammatik va boshqa xususiyatlarini ko'rsatuvchi.

### **Asosiy qism**

Lisoniy birliklarni uslubiy xosligiga ko'ra razmetkalash annotatsiyalashning lingvistik tavsiflovchi turiga mansub bo'lib, quyida fe'l grammatik shakllarini uslubiy xosligiga ko'ra teglash masalalari xususida fikr yuritimiz.

*Mayl shakllarining uslubiy xoslanishini ifodalash xususida.* Fe'l mayllari o'ziga xos shakllarga ega bo'lib, turli xil modal ma'nolarni ifodalaydi. Shunga qaramay, fe'l mayllarining biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Ana shu holat ulardagi keng uslubiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi. Fe'lning ijro maylida modallik, ta'sirchanlik deyarli bo'lmaydi. Bunda faqat harakatning bajarilish-bajarilmasligi haqida xabar berish ma'nosi anglashiladi. Ammo bu mayl ba'zan buyruq yoki shart mayllari o'rnida kelib, ular anglatgan ma'nolarni ifodalashi mumkin: *uylarni yig'ishtirasan, oshxonani tozalaysan, so'ngra kinoga borasan (yig'ishtir, tozala, bor buyruq fe'llari o'rnida kelgan)* [Qilichev 1992, 61]. Bunday holatda mayl

shaklini bildiruvchi qo'shimchani uslubiy xoslanishini hozircha ko'rsatib bo'lmaydi. Chunki uslubiy xoslanganlik haqidagi ma'lumot bilan teglashtirishda faqat lisoniy birlikning shakliga asoslanamiz. Yuqorida ko'rsatilgan holatni ham teglash mumkin, ammo buning uchun korpusda semantik analizator ishlashi kerak: ya'ni morfologik shakl bilan aniqlanmaydigan birliklar semantik analizator funksiyasi ishga tushganda avtomatik tahlil qilinishi mumkin.

Fe'ning buyruq-istak mayli buyurish, so'rash, qistash, iltimos kabi ma'nolarni bildiradi. Bu ma'nolar ikkinchi va uchinchi shaxslarga qaratilgan bo'ladi. Ammo buyruq maylining birinchi shaxs ko'rinishi mavjud emas. Chunki so'zlovchi o'ziga o'zi buyurishining imkoni yo'q. Shunga qaramay, badiiy asarlarda personajlar nutqida ma'lum uslubiy talab bilan o'ziga o'zi undash uchraydi. Bunda so'zlovchi o'zini ikkinchi shaxs o'rniga qo'yib gapiradi. Buning o'ziga xos semantik-uslubiy xususiyatlari bor. Jumladan, buyruq bevosita so'zlovchining o'ziga tegishli bo'ladi: *Rajabboy, bu ishni qiling* ("men bu ishni qilay" ma'nosida, so'zlovchi birinchi shaxs). Bu tarzda qo'llanish **so'zlashuv** uslubiga xos bo'lib, o'zini ovsarlikka olish yoki g'ururlanish ma'nosida keladi [Qilichev 1992, 62]. Bu kabi holatlar haqida ham aynan yuqoridagi muammoni aytish mumkin.

E.Qilichevning ta'kidlashicha, fe'ning buyruq-istak mayl shakllari **badiiy uslubda, publitsistikada** keng qo'llanadi. Shart mayli fe'l o'zaklariga -sa affiksini qo'shish bilan hosil qilinadi. -sa shaklli fe'llarda modallik, hissiy-ta'sirchanlik ma'nolari kuchli seziladi. -sa shakli orqali nafaqat shart ma'nosi, balki orzu, xohish, iltimos, sabab ma'nolari ham ifodalanadi: *ishlasa, borsam, borib kelsang. Menga so'z bersangiz edi* kabi [Qilichev 1992, 62].

Ko'rinyaptiki, fe'ning mayl shakllari ichida **so'zlashuv, badiiy, publitsistik uslubga** xoslanish ilmiy jihatdan asoslangan, ammo bunday xoslanish fe'ning ma'lum bir uslubida maxsus morfologik shakl bilan farqlanmaydi, ya'ni bir morfologik shakl ma'lum kontekstda uslubiy xoslanishni ifodalasa, boshqa kontekstda uslubiy betaraf bo'ladi. Bunday holatlarni avtomatik tahlil qilishning hozircha imkoni yo'q. O'zbek kompyuter lingvistikasining keyingi bosqichlarida ushbu tahlilni amalga oshiruvchi analizatorlar yaratilsa, kontekstga qarab uslubiy xoslanishni aniqlash imkoni paydo bo'ladi.

*Fe'l zamon shakllarining uslubiy xususiyatini avtomatik aniqlash.* Fe'ning zamon kategoriyasi – obyektiv voqelikning tilda aks etishining bir ko'rinishi. Tilda zamon tushunchasi fe'ning zamon shakli orqali ifodalanadi. Fe'l zamonlarining har biri o'z shakliga

ega. Bu shakllar o'zaro ichki sinonimiya hosil qilishi mumkin yoki bir zamonga xos shakl o'zi anglatishi kerak bo'lgan ma'noni emas, balki boshqa zamon ma'nosini bildirishi ham mumkin. Ya'ni shakl ma'nosida ko'chish yuz beradi. Bularning hammasi ma'lum bir uslubiy effektini yuzaga chiqaradi [Qilichev 1992, 62].

*O'tgan zamon fe'li.* Bu zamon ma'nosi *-di, -gan, -gan edi, -(i) b edi, -(a)r edi* shakllari vositasida yuzaga chiqadi. Bu shakllar nutqda harakatning o'tgan zamonda amalga oshganligini ifodalash ma'nosida o'zaro sinonim bo'lib kelsa-da, yana har biri o'ziga xos modal ottenkalariga ega. Jumladan, *-di* shaklli fe'llarda harakatning o'tgan zamonda aniq bajarilganligi ifodalansa, *-(i)b edi* shaklli fe'llarda o'tgan zamonda bajarilgan harakat hikoya qilish, eslash orqali bayon qilinadi. O'tgan zamon shakllari nutq uslublariga munosabati jihatidan ham farqlanadi. Masalan, *-(i)b edi, -guvchi edi* shakllari **so'zlashuv** nutqiga, *-moqda edi* shakli esa **rasmiy uslubga** xos. Nutqni jonli qilish, u yoki bu harakatni tinglovchining ko'z o'ngida yoki yaqin vaqt ichida aniq bajarilganligini ifodalash uchun *-di* shaklli o'tgan zamon fe'li kelasi zamon ma'nosi uchun ishlatiladi: *Qani ketdik. Ertaga boy meni qoziga chaqirtiradi, yorimni tortib oladi, endi men nima qilaman? (Ertakdan).* Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, **so'zlashuv va rasmiy uslubga** xosligi ko'rsatilgan shakllarga shunday axborotni beruvchi teglar biriktiramiz.

Zamon	z	Zamon shakllari	
		Uslubiy betaraf	Uslubiy xoslangan
O'tgan zamon	z1	-di, -gan/kan/qan, -gan edi/kan edi/qan edi, -gan ekan/-kan ekan/-qan ekan, -gan emish /-kan emish/-qan emish, -b edi/-ib edi, -uvdi/-ovdi, -b(shaxs-son) ekan/-ib(shaxs-son) ekan, -r edi/+ar edi, -rdi/+ardi, -yotgan edi/-ayotgan edi, -yotgandi/-ayotgandi, -yotib edi/+ayotib edi, -guvchi edi, -ydigan edi/-adigan edi, -moqda edi, -moqchi edi, -b/+ib	- gandi/-kandi/-qandi ( <b>so'zl.</b> ) -ganakan/ -kanakan/-qanakan ( <b>so'zl.</b> ) -ganmish/ -kanmish/-qanmish ( <b>so'zl.</b> )

*Hozirgi zamon fe'li.* Bu zamon ma'nosi *-yap, -yotir, -moqda* shakllari vositasida yuzaga chiqadi. Bu formalar o'zaro sinonimlik hosil qiladi: *boryapman / borayotirman / bormoqdaman; ishlayapman / ishlayotirman / ishlamoqdaman* kabi. Hozirgi zamon ma'nosini

*yot, tur, o'tir, yur* fe'llari yordamida analitik yo'l bilan ham hosil qilish mumkin. Hozirgi zamon fe'li shakllaridan *-yap* nutqiy betaraf bo'lib, faol qo'llanadi; *-yotir* shakli she'riy nutqda ko'proq uchraydi; *-moqda* shakli kitobiy uslubga xos bo'lib, obrazli ifodalarda, tantanali publitsistik nutqlarda ko'p ishlatiladi. Shuningdek, manbalarda hozirgi zamon shakllari ma'lum uslubga xoslangani bilan o'zaro farqlanishi ko'rsatiladi: *-yapti* uslubiy betaraf (neytral) shakl bo'lsa, *-moqda, -yotir* yozma nutq uslubiga xos [Nurmonov, Sobirov, Yusupova 2012, 161].

Hozirgi zamon shakllari boshqa zamon ma'nosida ham ishlatilishi mumkin. Jumladan, hozirgi zamon shakllari o'tgan zamon ma'nosida qo'llanganda, badiiylik oshiriladi, ta'sirchanlik kuchaytiriladi. So'zlovchi harakatning bevosita kuzatuvchisi sifatida o'tgan zamon voqealarini hozirgi zamon holat fe'llari orqali tasvirlaydi. Bo'lib o'tgan voqealarni o'quvchi ko'zi oldida yangidan gavdalantiradi: *Birpasdan keyin Farmonqul, uning ketidan xotini qizini yetaklab kirdi. U mehmondan qochmadi. Hammamiz o'tirmoqdamiz, qani endi birontamizdan sado chiqsa.* (A.Q.) E.Qilichevning ko'rsatishicha, agar o'tirmoqdamiz fe'li kontekstdagi boshqa o'tgan zamon fe'llari bilan bir xil shaklda berilsa, ma'noda o'zgarish bo'lmaydi. Lekin matndagi tasviriylik yo'qolib, voqea oddiy xabarga aylanib qoladi. Hozirgi zamon fe'l shakllari kelasi zamon o'rnida ham qo'llanadi. Bunda ma'no ta'sirchanligi bo'rttiriladi: *Ertaga dam olishga ketyapmap.* Fe'l zamon shakllarining bu kabi uslubiy o'ttenka hosil qilish imkoniyatlari shaklga emas, ma'noga xoslangani sababli ularni avtomatik tahlilga tortib bo'lmaydi. Ko'rsatilgan qo'shimchalarning uslubiy xoslanishi nazariy asosga ega. Zamon shakllarining uslubiy xoslanishi shakliy jihatdan farqlangan holatlarning bazada aks ettirilishini quyida ko'rsatamiz.

Zamon	z	Zamon shakllari	
		Uslubiy betaraf	Uslubiy xoslangan
Hozirgi zamon	z2	-yotibdi ekan/+ayotibdi ekan, -yotib (shaxs-son) ekan/+ayotib (shaxs-son) ekan, -yotgan ekan/+ayotgan ekan, -yotgan emish/+ayotgan emish, -yotgan emish/+ayotganmish,-yap, -yapti ekan, -yapti emish, -yap+(shaxs-son)+ekan (shaxs-son), -yap+(shaxs-son)+emish, -yap+(shaxs-son)+mish, -yap+(shaxs-son)+emish (shaxs-son), -yap+(shaxs-son)+mish (shaxs-son) -yotib/+ayotib	-yaptikan (so'zl.) -yaptimish (so'zl.) -yap+(shaxs-son)+ekan -yotir/+ayotir (yozma nutq) -yotir ekan/+ayotir ekan <b>(yozma nutq)</b> -moqda (yozma nutq) -moqda emish (so'zl.) -moqdamish (so'zl.) -moqda ekan (so'zl.) -ydigan emish/+adigan emish (so'zl.) -ydiganmish/+adiganmish (so'zl.)



*Kelasi zamon fe'li.* Kelasi zamon shakllari nutq so'zlanayotgan paytdan keyin bajariladigan harakatni bildiradi. Bu zamon *-ajak(-yajak), -moqchi, -digan* affikslari yordamida yasaladi. Kelasi zamon yasovchi bunday affikslar o'zaro sinonimlik munosabatni tashkil qiladi; *borajakman – bormoqchiman – boradiganman; yozajaksan – yozmoqchisan – yozadigansan.* Kelasi zamon shakllari ham o'rni bilan boshqa zamon ma'nolarini ifodalash uchun ishlatiladi. Kelasi zamon shakllarining uslubiy xoslanishi fe'lning *-a* ravishdosh shakliga *-di, -jak*; fe'l asoslariga *-ar, -ur, -gusi* qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Masalan, *keladi, kelajak, kelar (ur), kelgusi* kabi. Bulardan *-adi, -ar* uslubiy betaraf shakllar bo'lsa, *-jak, -gay, -ur, -gusi* shakllari badiiy va publitsistik uslubga xos. Uslubiy betaraflik belgisiga ko'ra *-adi* va *-ar* shakllari bir guruhni tashkil qilsa ham, ular ifodalanayotgan harakatga gumon-taxmin ma'nosini bildirish-bildirmasligiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisi bunday ma'noga betaraf bo'lsa, ikkinchi shakl gumon-taxmin ma'nosiga ega.

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda fe'l zamon shakllarining uslubiy xoslanishi MBda quyidagicha aks ettiramiz:

Zamon	z	Zamon shakllari	
		Uslubiy betaraf	Uslubiy xoslangan
Kelasi zamon	z3	-y/+a, -ydi ekan/-adi ekan, -ydi emish/-adi emish, -r/-ar, -r emish/-ar emish, //-rmish/ armish, -r ekan/-ar ekan, -moqchi, -moqchi emish, -moqchi ekan, -ydigan/-adigan, -ydigan ekan/-adigan ekan, -y/-ay dedi	-yajak/+ajak ( <b>badiiy / publitsistik</b> ) -gay/+kay/+qay ( <b>badiiy / publitsistik</b> ) -gu/+ku/+qu(shaxs-son) dir ( <b>badiiy</b> ) -rkan/+arkan ( <b>badiiy / publitsistik</b> ) -moqchimish ( <b>so'zl.</b> ) -ur ( <b>badiiy / publitsistik</b> ) -gusi ( <b>badiiy / publitsistik</b> )

*Fe'l nisbat shakllarining uslubiy xoslanishini ko'rsatuvchi teglar.* Hozirgi o'zbek tilida fe'lning besh xil daraja shakli mavjud bo'lib, ular barcha nutq uslublarida uchraydi. Ayrim daraja shakllari ma'lum bir nutq uslubiga xoslangan ham bo'ladi.

*Orttirma daraja shakllari* semantik-grammatik planda bitta vazifani bajarsa ham, nutqda ishlatilishi jihatidan farqlanadi. *-t* affiksi *-giz (-g'iz, -qiz)* shakllari bilan sinonimlik hosil qiladi: *kirit – kirgiz, yurit – yurgiz, to'lat – to'lg'az* kabi. Xuddi shuningdek, turli shakldagi orttirma daraja yasovchi quyidagi affikslar ham o'zaro

o'rin almashtira oladi: *-giz, -dir (kiygiz, kiydir), -iz, -dir, (emiz, emdir), -t, -tir, -g'iz (to'lat, to'ldir, to'lg'az)* va h.k. Bir leksemaga orttirma daraja yasovchi bir morfemaning turli fonetik variantlari qo'shilishi mumkin: *ko'rgaz – ko'rgaz, ko'rg'az, turgiz – turg'iz – turg'az* kabi. Bunday fonetik variantlar qisman **dialektal** (sheva) xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, emotsional-ta'sirchanlikni kuchaytirish, personajni nutqiy tavsiflash kabi uslubiy vazifalarni bajaradi. Ko'rinib turibdiki, fe'l nisbat shakllari uslubiy vazifa bajarsa-da, shakliy jihatdan uslubiy xoslanganligini ajratib bo'lmaydi. Bunday holatda avtomatik ishlov berish hozircha imkonsiz.

Fe'lning orttirma darajasini hosil qiluvchi shakllar faol-nofaolligiga ko'ra ham farqlanadi. *-tir (-dir), -gaz (-qaz, -kaz, -giz, -g'iz, -qiz)* affikslari *sinonimiyasida -giz (-kiz, -qiz)* forma yasovchilar faol emas. *-gaz, -g'az, -g'iz* affikslari esa ko'proq dialektal yoki individual nutqqa xos. *-kaz, -qaz* fonetik variantlari ba'zan ma'no farqlash uchun ham ishlatiladi. Chog'ishtiring: *o'tkaz* – biror voqeani boshdan kechirmoq; *o'tqaz* – ko'chat o'tqazish (qurish) ma'nosida. Bu leksik ma'noni farqlamaslik uslubiy nuqsonga olib keladi [Qilichev 1992, 56].

Ba'zan bir nisbat ma'nosi o'rnida boshqa nisbat shakllaridan foydalaniladi. Xususan, bosh nisbat ma'nosida birgalik nisbat shakllari ishlatilishi mumkin. Masalan, *keldi – kelishdi, kelyapti – kelishyapti*. Shuningdek, bosh nisbat ma'nosida majhul nisbat shakllaridan foydalaniladi: *qildim o'rniga qilindi, bajardim o'rniga bajarildi, kiring o'rniga kirilsin* kabi. Bunday holat ma'lum uslubiy emotsional ma'no talabi bilan ro'y beradi. Ko'pincha keyingi holat hurmat, kamtarlik ma'nolarini ifodalaydi. Ko'rib o'tilganidek, fe'l nisbat shakllari shakl jihatdan uslubiy betaraf. Boshqa uslubiy ma'nolar esa faqat kontekstda anglashiladi. Shu sababli nisbat ko'rsatkichlarini ma'lumotlar bazasida quyidagicha aks ettiramiz:

I.2	Nisbat	n	Uslubiy betaraf
A	Aniq	n1	+∅
B	O'zlik	n2	1) +n/+in, 2) +l/+il
C	Majhul	n3	1) +n/+in, 2) +l/+il
D	Orttirma	n4	1) +ar 2) +ir, 3) +giz/+kiz/+qiz/+g'iz/+gaz/+kaz/+qaz, 4) +iz, 5) +dir/+tir, 6) +t/+it
E	Birgalik	n5	+sh/+ish

*Fe'lning funksional shakllarining uslubiy xususiyatini avtomatik aniqlash imkoniyati.* Fe'lning funksional shakllari asosiy

xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi:

- 1) fe'ning ma'lum bir vazifa uchun xoslangan shakllari;
- 2) harakatning turli tavsifini ko'rsatuvchi va modal ma'no ifodalovchi shakllar.

Fe'ning ma'lum bir vazifa uchun xoslangan shakllariga *harakat nomi, sifatdosh va ravishdosh* kiradi.

*Harakat nomi.* Fe'ning bu shakli *-(i) sh, -(u)v, -moq, -maslik, -ganlik* affikslari yordamida yasaladi. Bu shakllar ma'no jihatidan bir-biriga yaqin turadi. Ammo ular nutq uslublarida qo'llanishi, faol-nofaolligiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Jumladan, *-(i)sh* affiksi bilan harakat nomi yasalishi faol bo'lsa, *-(u)v* shakli bilan harakat nomi yasalishi nofaol. *Toshkentga o'qishga keldim* deyish mumkin. Ammo *Toshkentga o'quvga keldim* deb bo'lmaydi. Chunki *-(u)v* affiksi bilan yasaluvchi shakl ko'proq ot ma'nosida qo'llanadi. *-moq* affiksi bilan harakat nomi yasash ham nisbatan chegaralangandir. Uning *-mak* varianti she'riy nutqqa xos. Klassik adabiyotda *-mak* shakli faol qo'llangan. Jonli so'zlashuv nutqida harakat nomi gapda ega vazifasida ko'proq qo'llanadi. Egasi harakat nomi bilan ifodalangan gaplar ta'sirchanlik xususiyatga ega bo'ladi. Chog'ishtiring: *chekish zararli. Yugurish foydali. Ayb emasdir sevmog, sevilmog (U.)*.

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda harakat nomiga oid axborotni quyidagicha annotatsiyalaymiz:

	<b>Fe'ning vazifa shakli</b>	<b>V</b>	<b>Uslubiy betaraf</b>	<b>Uslubiy xoslangan</b>	<b>Uslub turi</b>
a	harakat nomi shakli	V1	+sh/+ish +маслик +v/+uv	+moq +moqlik -мак +shlik/+ishlik	kitobiy uslub badiiy uslub badiiy uslub yuqori uslub

